

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Q.SH.BEKQULOV

CHIZMA GEOMETRIYA

1-qism

*(5110800 – “Tasviriyl san’at va muhandislik grafikasi”
bakalavr ta’lim yo‘nalish talabalari uchun o‘quv qo‘llanma)*

TOSHKENT
«ISHONCHLI HAMKOR»
2021

UO‘K 514(075.8)
KBK 22.151.3я7

Muallif:

Q.Sh.Bekqulov – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti “Tasviriy san’at” kafedrasi o‘qituvchisi.

Taqrizchilar:

X.E.Sultanov – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti “Tasviriy san’at” kafedrasi mudiri, dotsent.

Sh.K.Murodov – Nizomiy nomidagi TDPU “Muhandislik grafikasi va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi professori.

Mazkur “**Chizma geometriya**” (fanidan masalalarning metodik ishlanmasi) o‘quv qo‘llanmasi OTMlarning 5110800 – “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” bakalavr yo‘nalish bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bugungi kun talabalarini hisobga olgan holda tuzildi.

O‘quv qo‘llanma talabalarni chizma geometriya fanidagi qabul qilingan shartli belgilar, simvollar, nuqta va to‘g‘ri chiziq proyeksiyalari, qisqa masofalar, parallel tekislik va perpendikular tekisliklar haqidagi nazariy hamda amaliy asoslari bilan chuqur tanishtradi. Mazkur o‘quv qo‘llanma 3 qismidan iborat bo‘lib, unda chizma geometriya haqidagi malumotlar qiziqarli va tushunarli qilib bayon etilgan. Chizma geometriya fanining tarixi, metrik va pozitsion masalalar to‘g‘risida fikr yuritilgan. Shu bilan birga chizma geometriya fanining asosiy mazmuni bo‘lgan chorak, oktant, nuqta, kesma, tekisliklar, shuningdek turli masalalar, nazorat savollari, nazorat uchun test va mustaqil ta’lim topshriqlarini bajarish ko‘zda tutilgan. O‘quv qo‘llanmada berilgan har bir mavzu yakunida talabalar bilimini mustahkamlash uchun savollar, terminlar va foydalilaniladigan adabiyotlar ro‘yhati keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtal maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 31 maydag‘i 237-sonli buyrug‘iga asosan o‘quv qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7476-2-3

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, qisqa davr ichida ulkan ijobjiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu muvaffaqiyatlarga o‘z-o‘zidan erishilayotgani yo‘q. Siyosatdan iqtisodni ustun qo‘yilishi, inson manfaatining ustuvorligi, barcha millat vakillarining teng huquqligi, mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishta hayotning mavjudligi, ta’limga Davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilishi kabi islohatlar bugungi kundagi mamlakatimizning barcha sohada teskor rivojlanishiga zamin bo‘lmoqda.

Hozirgi tezkor rivojlanayotgan zamonda Davlatning kuchi uning intelektual salohiyatli fuqarolari bilan o‘lchanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimiz yoshlarining huquq va manfaatlarini, shuningdek, burchlarini belgilab beruvchi yoshlarga oid Qonunni qabul qildi. Bundan tashqari 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “*Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, jumladan jismonan sog ‘lom, ruhiy va intelektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat‘iy hayotiy nuqtayi-nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish*” kabi vazifalar qo‘yildi¹.

Mamlakatimiz yoshlariga nisbatan ishonch bildirib, ular kela-jagimiz ekanligini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida quyidagicha bildirib o‘tgan: “*Albatta, faqat zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, doimo el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashaydigan siz, aziz yoshlarimiz maydonga dadil chiqib, bugungi kunda hayotning o‘zi oldimizga qo‘yayotgan vazifalarni hal etishga qodirsiz*”².

Oliy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassislariga o‘sib kelayotgan yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishda mayjud barcha resurslardan oqilona va samarali foydalanishni ta‘minlash, davlat

¹ <http://strategy.regulation.gov.uz>.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг «Камолот» ёшлар ижтимоий харакатининг IV қурултойидаги нутки.

standartlari, o‘quv dasturlari va o‘quv uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish pedagogik axborot texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Bugungi kunda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish uchun pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish va pedagog kadrlarning imkoniyatlarini oshirishga katta talablar qo‘yilmoqda bugungi kunda bilimdonligi mustahkam bo‘lgan yosh kadrlarni har tomonlama yetuk intelektual salohiyatlari, manaviyati kuchli, zamon bilan hamnafas bo‘ladigan yoshlarni tarbiyalashda oliy ta’lim tizimidagi ta’lim jarayoni juda muhim bo‘lib hisoblanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda oliy ta’limda dars jarayonlarida endilikda o‘quvchilarni passiv eshituvchi emas, balki ularni faol qatnashuvchi roliga o‘tkazish lozim. Shundagina o‘qituvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga, darsni samaradorligini oshirishga bu bilan esa ta’lim samaradorligiga erishadi. Bu jarayonlarni albatta zamonoviy pedagogik texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin. Chunki darslarda mavzu mazmuniga mos pedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida foydalanish talabalarga mavzuni to‘liq, mukammal shaklda yetkazib berish hozirgi zamon o‘qituvchisidan ulkan inteliktual salohiyat, yuksak pedagogik malaka talab etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib chizma geometriya darslarini tashkil etishda bu ko‘rsatmalar muhim hisoblanadi.

Qabul qilingan shartli belgilar

Belgilanishi	Nomlanishi
H, V, W	gorizontal, frontal, profil proyeksiyalar tekisliklari
H_1, H_2, \dots V_1, V_2, \dots	gorizontal, frontal va profil proyeksiyalar tekisliklarining bir va ikki marta almashtirilgan vaziyatlari
A, B, C, D, E, \dots va $I, 2, 3, 4, 5, 6, 7, \dots$	fazodagi nuqtalar
$A', B', \dots,$ $A'', B'', \dots,$ $A''', B''', \dots,$	fazodagi A, B, \dots nuqtalarning gorizontal, frontal, profil proyeksiyalari
A_p, B_p, C_p, \dots	fazodagi A, B, C, \dots nuqtalarning P tekislikdagi proyeksiyalar
a, b, c, d, e, \dots k, m, n	fazodagi to‘g‘ri yoki egri chiziqlar
a', b', n', \dots a'', b'', n'', \dots a''', b''', n'''	fazodagi a, b, n, \dots to‘g‘ri yoki egri chiziqlarning gorizontal, frontal, profil proyeksiyalari
H	gorizontal to‘g‘ri chiziqlar
F	frontal to‘g‘ri chiziqlar
P	profil to‘g‘ri chiziqlar
P, Q, T, G, \dots	fazodagi umumiy vaziyatdagi tekisliklar
H_1, H_2, H_3, \dots	gorizontal tekisliklar
V_1, V_2, V_3, \dots	frontal tekisliklar
W_1, W_2, W_3, \dots	profil tekisliklar

P_H , Q_H	fazodagi P va Q tekisliklarining gorizontal,
P_V , Q_V	frontal,
P_W , Q_W	profil izlari
(ABC) ; $a \parallel b$; $c \cap d$	geometrik elementlar bilan berilgan tekisliklar
Δ , θ , \sum , Ω , ...	grek alfavitining bosh harflari bilan fazodagi sirtlar
θ' , Δ' , ... θ'' , Δ'' , ... θ''' , Δ''' , ...	fazodagi θ va Δ sirtlarning gorizontal, frontal, profil proyeksiyalari
α° , β° , γ° , δ° , ...	grek alfavitining kichik harflari bilan burchaklar
A_0 , B_0 , ..., 1_0 , 2_0 , ...	sirtlarning yoyilmalaridagi nuqtalar

Qabul qilingan simvollar

Belgilanishi	Nomlanishi	Misol
\in (\notin)	tegishli (tegishli emas)	Masalan, $A \in F$
\equiv (\neq)	ustma-ust tushgan (ustma-ust tushmagan).	Masalan, $A \equiv B - A$ va B nuqtalar ustma-ust tushadi (F)
\cap	kesishgan.	Masalan, $a \cap b - a$ va b to‘g‘ri chiziqlar o‘zaro kesishadi
\div	ayqash to‘g‘ri chiziqlar	Masalan, $a \div b - a$ va b to‘g‘ri chiziqlar o‘zaro ayqash

$\parallel (\#)$	parallel (parallel emas).	Masalan, $a \# b - a$ va b to‘g‘ri chiziqlar parallel emas
\perp	perpendikulyar	Masalan, $a \perp b - a$ va b to‘g‘ri chiziqlar o‘zaro perpendikulyardir
\angle	tekis yoki ikki yoqli burchak	Masalan, $\angle BAC - AB$ va AC to‘g‘ri chiziqlari orasidagi burchak
a^b	ikki to‘g‘ri chiziq orasidagi burchak	Masalan, $a^b - a$ va b to‘g‘ri chiziqlar orasidagi burchak
a^P	to‘g‘ri chiziq va tekislik orasidagi burchak	Masalan, $a^P - a$ to‘g‘ri chiziq va P tekislik orasidagi burchak
P^Q	tekisliklar orasidagi ikki yoqli burchak	Masalan, $P^Q - P$ va Q tekisliklari orasidagi ikki yoqli burchak
 yoki 	to‘g‘ri burchak belgisi	

Chizma geometriya fanining maqsadi va vazifalari

Chizma geometriya umumiy geometriyaning bir shoxobchasi bo'lib, u narsalarni tasvirlash usullari yordamida ularning shakllari, o'lchamlari va o'zaro joylashishlariga tegishli pozision va metrik masalalarni yechishni o'rganadi.

Chizma geometriya boshqa geometriyalardan o'zining asosiy usuli tasvirlash usuli bilan farq qiladi va u matematika fanlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, umumtexnika fanlaridan hisoblanadi. U o'zining tasvirlash usullari yordamida o'quvchining fazoviy tasavvurini kengaytiradi. Tasvirlarni yasash va oldindan yasalgan tasvirlarni o'qiy bilish, hamda amaliyotdagi turli muhandislik masalalarini yechishga yordam beradi. Chizma geometriya qonun va qoidalari bilan nafaqat mavjud narsalarni, balki tasavvur qilinadigan narsalarni ham tasvirlashi mumkin.

Fazodagi shakllarning tekislikdagi chizmalar chizma geometriya usullari bilan ma'lum qonun-qoidalarni asosida hosil qilinadi. Bu chizmalar orqali buyumning fazoviy shaklini chizish va o'lchamlarini aniqlash mumkin. Chizmalar yordamida geometrik shakllarga tegishli stereometrik masalalar yechiladi. Chizmalarsiz fan va texnika taraqqiyotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Arxitektorlar va muhandislar o'z ijodiy fikrlarini faqat chizmalar yordamida to'liq bayon eta oladilar.

Chizmalar bo'yicha barcha muhandislik inshootlari quriladi, mashinalar, mashina qismlari, medisina asboblari va xokazo buyumlar ishlab chiqariladi.

Shakllarning bizga ma'lum bo'lgan barcha geometrik xossalarni ularning chizmalaridan olingan ma'lumotlardan ham aniqlasa bo'ladi. Shuning uchun ham buyumlarning chizmalarini ularning geometrik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi tekis geometrik modellar deb atash mumkin.

Chizma geometriya fanida quyidagilar o'rganiladi:

1. Fazoviy shakllarning tekislikdagi tasvirlarini, ya'ni tekis modellari (chizmalarini) ni yasash usullari;
2. Tekis chizmada geometrik masalalarni grafik yo'l bilan yechish usullari;

3. Shakllarning berilgan tekis chizmalarini bo'yicha ularning fazoviy ko'rinishini va vaziyatini tasavvur qilish hamda ularning yaqqol tasvirlarini yasash usullari;

4. Geometrik shakllarning chizmalarini bajarish va o'qish orqali o'quvchining fazoviy tasavvurini rivojlantirish usullari.

Ma'lumki, geometrik shaklning xossalarni analitik va grafik usullarda tekshirish mumkin. Figuralarning grafik modeliga asosan ularning analitik usulda berilishini va aksincha, figuralarning analitik ko'rinishidan ularning chizmalarini yasash usullarini chizma geometriyada ham ko'rish mumkin.

Loyihalanadigan buyumlarni faqatgina grafik usulda tasvirlash hozirgi zamon ishlab chiqarishi talablarini qanoatlantirmaydi. Shuning uchun chizmalarini bajarishda grafik usullar bilan birgalikda analitik usullardan ham foydalilanadi.

Keyingi yillarda buyumlarning chizmalarini kompyuter grafi-kasi vositalari yordamida tayyorlashda avtomatlashtirilgan loyi-halash tizimlarining kirib kelishi chizma geometriya fanining rivojlanishirishda yangicha mazmun kasb etmoqda.

Asosiy geometrik tushunchalar va shakllar

Geometriyaning asosiy tushunchalaridan biri shakl (figura) lardir.

Ta'rif. Har qanday tartibda joylashgan nuqtalar to'plami **geometrik shakl (figura)** deyiladi.

Geometrik shakllarni tashkil qiluvchi nuqtalar to'plami bir nechta va cheksiz ko'p nuqtalardan tuzilgan bo'lishi mumkin.

Geometrik shakllar juda ko'p. Ammo shulardan eng asosiyлари to'g'ri chiziq va tekislikdir. Nuqtalar, to'g'ri chiziqlar va tekisliklar orasida ma'lum munosabat o'rnatilgan bo'lib, buni yotishlilik yoki *tegishlilik* deb yuritiladi. Masalan, A nuqta a to'g'ri chiziqqaga tegishli – $A \in a$; A nuqta P tekislikka tegishli – $A \in P$; a to'g'ri chiziq P tekislikka tegishli – $a \in P$ va xokazo.

Nuqta. Nuqta eng boslang'ich geometrik tushuncha bo'lib, u hajmsiz, yuzasiz, uzunlikka ega bo'lmasligan geometrik element deb qabul qilingan. Nuqtani chizmalarda shartli ravishda kichkina aylana-nacha ko'rinishida belgilanadi.

To‘g‘ri chiziq. Berilgan ikki nuqtadan o‘tgan yagona geometrik shakl bu faqat to‘g‘ri chiziq bo‘ladi. To‘g‘ri chiziqni bitta nurda yotuvchi nuqtalar to‘plami deb ham qarash mumkin. To‘g‘ri chiziqning uzunligini haqiqiy miqdor bilan o‘lhash mumkin emas. To‘g‘ri chiziq uzunligi cheksiz (∞) miqdordir. To‘g‘ri chiziq ikki nuqta bilan chegaralansa, to‘g‘ri chiziq kesmasi hosil bo‘ladi. To‘g‘ri chiziq kesmasi haqiqiy miqdor o‘lchoviga egadir.

Geometrik fazo. Geometriyada bir jinsli (bir xil) ob’ektlarning to‘plami *geometrik fazo* deb yuritiladi.

Geometrik fazoni nuqtalar, chiziqlar yoki sirtlar to‘plamlaridan tuzilgan deb qarash mumkin. Ma’lumki, chiziqlar va sirtlar nuqtalardan tashkil topadi. Nuqta esa birinchi va boshlang‘ich geometrik tushunchadir. Demak, geometrik fazoni shakl deb qarash mumkin.

Real ob’ektlarni o‘rganish xossalariiga qarab geometrik fazolar ham turlicha bo‘ladi. Masalan, real ob’ektni yevklid aksiomalari sistemasi bo‘yicha o‘rganilsa, yevklid fazosi hosil bo‘ladi. yevklid fazosi uch o‘lchamli (R_3) fazodir. Tekislik yevklid fazosida ikki o‘lchamli (R_2) bo‘ladi. Biz o‘rganayotgan geometriya yevklid geometriyasi deb yuritiladi. yevklid fazosining kengaytirilgan modelini birinchi bo‘lib ulug‘rus geometri N.I.Lobachevskiy (1792-1856) yaratdi. Bu model *Lobachevskiy geometriyası* deb yuritiladi va bu geometriyaning o‘ziga xos aksiomalar sistemasi mavjud.

Chizma geometiraning pozitsion, metrik masalalari

Geometrik shakllarning chizmada o‘zaro joylashish vaziyatlariga qarab ularga oid masalalarni uchta guruhga bo‘lish mumkin.

Pozision masalalar. Pozision masalalarda berilgan ikki geometrik shakllarning o‘zaro joylashish vaziyatiga nisbatan ularning kesishuvni natijasida hosil bo‘lgan uchinchi geometrik shaklning vaziyati aniqlanadi yoki vaziyati aniqlanadigan geometrik shakllarga tegishli masalalar ko‘riladi. Pozision masalalarga to‘g‘ri chiziq bilan to‘g‘ri chiziq va tekislikning tekislik bilan tekislikning, tekislik bilan sirtning kesishishi, sirtlarning o‘zaro kesishish chizig‘ini yasash kabi masalalar kiradi.

Metrik masalalar Metrik masalalarga berilgan geometrik shakllarning o‘zaro vaziyatidan hosil bo‘lgan shaklning metrikasi aniqlanadi yoki oldindan berilgan biror shakl metrikasiga asosan shakllarning o‘zaro vaziyatlarini aniqlanadi yoki o‘lchamlari aniqlanadigan geometrik masalalar kiradi. Metrik masalalarga to‘g‘ri chiziq bilan to‘g‘ri chiziq va to‘g‘ri chiziq bilan tekislik orasidagi burchaklarni aniqlash, o‘zaro perpendikulyar to‘g‘ri chiziqlar va tekisliklar yasash, berilgan sirtga urinmalar va normallar o‘tkazish, kesim yuzalarining haqiqiy kattaliklarini aniqlash, sirtlar yoyilmalarini yasash, tekislikning ma’lum bir bo‘lagini egib sirt yasash kabi masalalar kiradi.

Geometrik shakllarning o‘zaro joylashishi yoki metrikasining berilishiga qarab metrik masalalar ikkiga bo‘linadi.

To‘g‘ri metrik masalalar. Bunda ikki geometrik shakllarning o‘zaro vaziyatlariga nisbatan, ularning kesishuvidan hosil bo‘lgan shaklning metrikasi (o‘lchamlari) aniqlanadi.

Teskari metrik masalalar. Bunda oldindan berilgan biror metrikaga va geometrik shaklga nisbatan ikkinchi geometrik shaklning birinchiga nisbatan vaziyati aniqlanadi. Faqat berilgan metrikaga asosan birgina geometrik shaklni aniqlash mumkin emas. Buning uchun qo‘sishimcha shartlar berilishi kerak.

Konstruktiv masalalar. Konstruktiv masalalarga oldindan berilgan biror shartni qanoatlantiruvchi geometrik shakllarni hosil qilish kiradi. Konstruktiv masalalar guruhiga oldindan berilgan biror burchak bo‘yicha to‘g‘ri chiziqlar yoki tekisliklar yasash yoki ma’lum bir texnik talablarni qanoatlantiruvchi egri chiziq va sirtlar hosil qilish, yoyilmalar yasash kabi masalalar kiradi.

Nuqtaning ikki o‘zaro perpendikulyar tekisliklardagi proyeksiyalari.

Biror buyumning tasviriga qarab uni o‘qilishini ikkita o‘zaro parallel bo‘limgan proyeksiyalar tekisligiga proyeksiyalash orqali ta’minalash mumkin. Proyeksiyalar tekisliklarini o‘zaro perpendikulyar vaziyatda tanlab olinishi buyum tasvirini o‘qilishini osonlashtiradi.


O‘zaro perpendikulyar bo‘lgan ikki tekislik bir-biri bilan kesishib fazoni to‘rt qismga – kvadrantlarga (choraklarga) bo‘ladi. Fazoda gorizontal vaziyatda joylashgan (1-chizma) H tekislik *gorizontal proyeksiyalar tekisligi*, vertikal joylashgan V tekislik *frontal*

proyeksiyalar tekisligi deb ataladi. H va V proyeksiyalar tekisliklari o‘zaro perpendikulyar bo‘lib, ularning kesishgan Ox chizig‘i *proyeksiyalar o‘qi* deyiladi. Bunda H va V tekisliklar *proyeksiyalar tekisliklari sistemasini* hosil qiladi.


Proyeksiyalar tekisliklari sistemasining bunday fazoviy modelida turli geometrik shakllar, shuningdek, detallar, mashina va inshootlarni joylashtirib, so‘ngra ularning chizmalarini yasash katta noqulayliklar tug‘diradi va zaruriyati ham bo‘lmaydi.

Buyumlarning chizmalarini bajarishda bu tekisliklarning bir tekislikka joylashtirilgan (jipslashtirilgan) tekis tasvirlaridan foydalilanildi. Shu maqsadda V proyeksiyalar tekisligi qo‘zg‘almasdan, H gorizontal proyeksiyalar tekisligini Ox proyeksiyalar o‘qi atrofida pastga 90° ga aylantirib, V tekislik bilan ustma–ust tushirib jipslashtiriladi (2-chizma). Natijada, H va V tekisliklarda bajarilgan barcha yasashlar asosiy chizma tekisligi sifatida qabul qilingan V frontal proyeksiyalar tekisligiga joylashtiriladi. Bunda nuqta yoki geometrik shaklning bitta tekislikda joylashtirilgan ikki – gorizontal va frontal tasvirlari –*tekis chizma* yoki *kompleks chizma* – epyur hosil qilinadi. Bu usulni birinchi marta fransuz geometri Gaspar Monj (1746-1818) tavsiya etgan. Shuning uchun bu tekis chizmani Monj chizmasi deb ham yuritiladi.

Amalda geometrik shakllarning to‘g‘ri burchakli proyeksiyalarini yasashda asosan proyeksiyalar o‘qlaridan foydalilanildi. Shuning uchun chizmada proyeksiyalar tekisliklarining konturini tasvirlash shart emas (3-chizma).



1-chizma



2-chizma

3-chizma

Ma'lumki, barcha buyumlar nuqtalar to'plamidan tashkil topgan. Shuning uchun proyeksiyalashni nuqtadan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Biror nuqta yoki geometrik shakl fazoning turli choraklarida joylashuvi mumkin.


Nuqtaning uchta perpendikulyar tekislikdagi proyeksiyaları

O'zaro perpendikulyar bo'lgan uchta proyeksiyalar tekisligi kesishib, fazoni 8 qismga – oktantlarga bo'ladi (4-chizma). Ma'lumki, H tekislik – gorizontal proyeksiyalar tekisligi, V – frontal proyeksiyalar tekisligi deyiladi. Tasvirdagi W tekislik *profil proyeksiyalar tekisligi* deb ataladi. Uchta proyeksiyalar tekisliklar o'zaro perpendikulyar joylashgan bo'ladilar, ya'ni $H \perp V \perp W$. Buni H, V va W proyeksiyalar tekisliklari sistemasi deb yuritiladi.


Tekisliklarning o'zaro kesishishi natijasida hosil bo'lgan to'g'ri chiziqlar proyeksiyalar yoki koordinata o'qlari deyiladi va Ox, Oy, Oz harflari bilan belgilanadi. Proyeksiyalar o'qlarini tashkil qiluvchi Ox – *abssissalar o'qi*, Oy – *ordinatalar o'qi* va Oz – *applikatalar o'qi* deb ataladi. Buni H, V va W proyeksiyalar tekisliklari sistemasi deb yuritiladi.

Uchta proyeksiyalar tekisligining o'zaro kesishish nuqtasi O koordinatlar boshi deyiladi.


Bu sistemada musbat miqdor Ox o'qiga (4-chizma) koordinatlar boshi O dan chapga, Oy o'qiga kuzatuvchi tomonga vo Oz o'qiga yuqoriga qaratib qo'yiladi. Bu o'qlarning qarama-qarshi tomonlari manfiy miqdorlar yo'nalishi bo'lib hisoblanadi.



4-chizma.



5-chizma



Proyeksiyalar tekisliklarida geometrik shakllarning ortogonal proyeksiyalarini yasashni osonlashtirish uchun, odatda, bu tekisliklarning bir tekislikka jipslashtirilgan tekis tasviridan foydalaniladi. Shu maqsadda H tekislikni Ox o‘qi atrofida pastga 90° ga va W tekislikni Oz o‘qi atrofida o‘ngga 90° ga aylantirib, V tekislikka jipslashtiriladi (5-chizma). Bunda Ox va Oz proyeksiyalar o‘qlarining vaziyati o‘zgarmay qoladi (6-chizma). H tekislik V tekislikka jipslashtirilganda Oy o‘qining musbat yo‘nalishi Oz o‘qining manfiy yo‘nalishi bilan, Oy o‘qining manfiy yo‘nalishi esa Oz o‘qining musbat yo‘nalishi ustma–ust tushadi. Shuningdek, profil proyeksiyalar tekisligi W frontal proyeksiyalar tekisligi V bilan jipslashtirilganda Oy o‘qining musbat yo‘nalishi Ox o‘qining manfiy yo‘nalishi bilan, uning manfiy yo‘nalishi Ox o‘qining musbat yo‘nalishi bilan ustma–ust joylashadi.

Geometrik shaklning ortogonal proyeksiyalari yasashda asosan H, V va W proyeksiyalar tekisliklari sistemasining koordinatalar o‘qlaridan foydalaniladi. Shuning uchun chizmada proyeksiyalar tekisliklarini tasvirlash shart emas (6-chizma). Shuningdek, tasvirni soddalashtirish uchun koordinata o‘qlarining manfiy yo‘nalishlarini chizmada hamma vaqt ham ko‘rsatilmaydi (7-chizma). Koordinata o‘qlarining manfiy yo‘nalishlari nuqtaning qaysi oktantga tegishligiga qarab belgilanadi.

Amaliyotda nuqta va geometrik shakllarning fazoviy vaziyati va ularning ortogonal proyeksiyalariga oid masalalarni asosan I–IV oktantlarda yechish bilan chegaralaniladi. Nuqtaning proyeksiyalar, uning fazoni qaysi oktantida joylashuviga qarab, proyeksiyalar

o‘qlariga nisbatan turlichay joylashadi.


Nuqtaning to‘g‘ri burchakli koordinatalari va proyeksiyalari orasidagi bog‘lanish.

Geometriyada har qanday nuqta va shakllarning fazodagi vaziyatini o‘zaro perpendikulyar uchta koordinatalar tekisliklari sistemasiga nisbatan aniqlash qabul qilingan. Bu metodni fransuz matematigi va faylasufi Rene Dekart (1506–1650 yy) ixtiro qilgani uchun **dekart koordinatalar sistemasi** deb yuritiladi.


Bu sistemada nuqtaning fazodagi vaziyatini uning x, y va z koordinatalari aniqlaydi. Masalan, fazoda berilgan biror A nuqtaning koordinatalari x_A , y_A va z_A bo‘ladi (8 a-chima). Ammo Dekart koordinatalar sistemasida stereometrik masalalarni geometrik yasashlar fikran bajariladi va chizma asboblari yordamida konkret geometrik shakllarni yasash va ularni grafik usullar bilan tahlil qilish imkoniyatini bermaydi.

Fransuz geometri va muxandisi G.Monj dekart koordinatalar sistemasi asosida fazodagi har qanday nuqtaning uchta koordinatasini proyeksiyalari tekisliklari sistemasida ortogonal proyeksiyalari bilan o‘zaro grafik bog‘ladi.

Haqiqatan, ortogonal proyeksiyalar sistemasida biror nuqtaning berilgan koordinatalari orqali uning proyeksiyalari tekisliklaridan uzoqligini aniqlash mumkin. Masalan biror A nuqtaning (8 b-chizma) W profil proyeksiyalari tekisligidan uzoqligini z_A abssissasi, V frontal proyeksiyalari tekisligidan uzoqligini y_A ordinatasi va H gorizontal proyeksiyalari tekisligidan uzoqligini z_A applikatasi kabi koordinatalari aniqlaydi.



a)



b)

8-chizma

Biror nuqta berilgan koordinatalariga asosan fazoning turli oktantlaridan birida joylashgan bo‘lishi mumkin.

Chizma geometriyada bajariladigan grafik vazifalar mazmuni

Oliy ta’lim muassasalarida chizma geometriya fani bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarida egalangan bilimlarni amaliyotga tadbiq qilish va uni mustahkamlash uchun talaba mustaqil ravishda mavzuga oid grafik vazifalar bajarishi me’yoriy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan.

Fan dasturida belgilangan mavzular mazmuni asosida belgilab qo‘yilgan vazifalar va ularning tarkibidagi grafik masalalarni shakllantrish kerak bo‘ladi. Quyida fan dasturidagi mavzular mazmuning bir qismi umumiy tarzda keltirilgan. Ya’ni chizma geometriya fanidagi proyeksiyalash usullari, fazoni chorak va oktantlarga bo‘lish, nuqta, to‘g‘ri chiziq va tekisliklarning ortogonal proyeksiyalari va umumiy kabi mavzularga oid grafik vazifalar o‘rin olgan.

Vazifalar ketma-ketligida bo‘shliq, ya’ni birinchi vazifadan ikkinchisiga o‘tganda yaxshi tushunmaslik holatlari uchrab turadi. Fan dasturidagi mavzular ma’ruza darslarida tushuntiriladi, doskada chiziladi, lekin amaliy darslarimizda chizma chizish jarayonini tushunmaslik holatlari uchrab turibdi. *Misol tariqasida (koordinatalari berilgan AB to‘g‘ri chiziq kesmasining fazoviy holati qurilsin, epyuri bajarilsin va to‘la tahlil qilinsin (kesma uchlari I-oktantda joylashgan))* Talabaga I oktantdagi koordinatalari orqali berilgan nuqtani topishni o‘rgatamiz, lekin A nuqtaning koordinatasini har bir talaba uchun alohida variant qilib bersak, va berilgan variantni darsni o‘zida chizib tugatsa, talaba grafik ishni yoki uyga vazifani bajarishda qiyalmaydi. Variant tuzganda murakkablik darajasi bir-xil bo‘lmaydi, shuning uchun talabani bilim darajasiga qarab variant berish kerak. Biz bunda talabani tabaqlashtirishdan yiroqmiz, ammo bilimi yaxshi bo‘lgan talabaga beriladigan vazifani murakkabligini oshirish kerak. Bunda bilimi yaxshiroq talaba o‘zi mustaqil o‘rganishni boshlaydi, bilimi o‘rtacha talaba vazifa bajarishda qiynalib qolmaydi. Chunki berilgan grafik

ish ketma-ketligida qo'shimcha vazifalar berilgan. Shu vazifalarni bajarish jarayonida bir vazifadan ikkinchi vazifaga o'tish jarayoni shakllanib boradi.

Ushbu me'yoriy hujjat asosida ishchi fan dasturida grafik vazifalar shakllanrilgan, quyida grafik vazifa va masalalarning mazmunini keltirib o'tamiz.

Nº	Grafik vazifalarning mazmuni	Namunasi berilgan chizma №	Variant Jadvali №
I vazifa; To'g'ri chiziq kesmasini tahlil qilish			
	<i>Mustaqil ta'lism. Koordinatalari berilgan A nuqtaning fazoviy holati qurilsin va epyuri bajarilsin.</i>	12-chizma	1-jadval. 2-jadval.
1.1	1.1.masala. Koordinatalari berilgan AB to'g'ri chiziq kesmasining fazoviy holati qurilsin, epyuri bajarilsin va to'liq tahlil qilinsin (kesma uchlari I-oqtantda joylashgan).	13-chizma	3- jadval 4-jadval
1.2	1.2 masala. I oktanda ikki proyeksiyasi berilgan KT to'g'ri chiziq kesmasining yetishmovechi proyeksiyasi aniqlansin, tahlil qilinsin va fazoviy holati qurilsin (kesma uchlari I oktantda joylashgan).	14-chizma	5- jadval 6-jadval
	<i>Mustaqil ta'lism. Koordinatalari berilgan D nuqtaning fazoviy holati qurilsin, epyuri bajarilsin (nuqta II oktantlarda joylashgan).</i>	15-chizma	7- jadval
	<i>Mustaqil ta'lism. Koordinatalari berilgan F nuqtaning fazoviy holati qurilsin, epyuri bajarilsin (nuqta III oktantlarda joylashgan).</i>	16-chizma	8- jadval
	<i>Mustaqil ta'lism. Koordinatalari berilgan E nuqtaning fazoviy holati qurilsin, epyuri bajarilsin (nuqta IV oktantlarda joylashgan).</i>	17-chizma	9- jadval
1.3	1.3 masala. Koordinatalari berilgan CD to'g'ri chiziq kesmasining fazoviy holati qurilsin, epyuri bajarilsin va to'liq tahlil qilinsin (kesma uchlari turli oktatlarda joylashgan).	18-chizma	10- jadval 11- jadval
II vazifa; Umumiy usulda masalalar yechish.			
	<i>Mustaqil ta'lism. AB kesmani gorizontal (H) va frontal (V) tekisliklaridagi izlari topilsin. Bilim darajasiga qarab profil tekislikdagi izi qo'shiladi.</i>	19-chizma	12- jadval

	Mustaqil ta'lim. AB kesmani gorizontal (<i>H</i>), frontal (<i>V</i>) va profil (<i>W</i>) tekisliklari dagi izlari topilsin. Bilim darjasiga qarab profil tekislikdagagi izi qo'shiladi.	20-chizma	12- jadval
2.1	2.1 masala. ABD uchburchak orqali berilgan tekislikning frontal va gorizontal izlari aniqlansin	21-chizma	13- jadval 14- jadval
	Mustaqil ta'lim. Geometrik shakkarning yetishmagan proyeksiyalari tiklansin va tekislikning gorizontal , frontal izlari yasalsin.		15- jadval
	Mustaqil ta'lim. S nuqtadan <i>P</i> tekislikkacha bo'lgan eng qisqa masofa aniqlansin.	22-chizma	16- jadval
2.2	2.2 masala. S nuqtadan ABD uchburchak tekisligigacha bo'lgan eng qisqa masofa aniqlansin	23-chizma	17- jadval
	<i>S</i> nuqtadan berilgan tekislikkacha bo'lgan eng qisqa masofani topish.		
2.3	2.3 masala. ABD uchburchak tekisligidan 40 mm uzoqlikda unga parallel tekislik O'tkazilsin.	24-chizma	17- jadval
2.4	2.4 masala. ABD uchburchak tekisligining bir uchi orqali unga qarshi yotgan tomoniga perpendikulyar qilib tekislik o'tkazilsin, ularning kesishuv chizig'i yasalsin va ko'rinar-ko'rinas qismlari aniqlansin.	25-chizma	17- jadval

I vazifa: To‘g‘ri chiziq kesmasini tahlil qilish.

I vazifa mazmuni “*To‘g‘ri chiziq kesmasini tahlil qilish*” bo‘lib, unda 3 ta grafik masala va 4 ta mustaqil ta’lim o‘rin olgan.

Vazifani bajarish uchun talaba quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak:

- chiziq turlari;
- standart chizma shriftlari va ularning yozilishi;
- masshtablar, standart qog‘oz bichim(o‘lcham)lari;
- parallel proyeksiyalash usuli va uning xossalari;
- fazoni chorak va oktantlarga bo‘lish;
- proyeksiyalar tekisliklari va koordinata o‘qlarining nomlarini bilish;
- epyur to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish;
- chorak va oktantlarda nuqta, to‘g‘ri chiziqning proyeksiyalarini qurish;
- to‘g‘ri chiziqning *H*, *V* va *W* larga nisbatan egallagan vaziyatlari, to‘g‘ri chiziqning izlarini aniqlash;
- to‘g‘ri chiziq kesmasini to‘liq tahlil qilish;
- ikki to‘g‘ri chiziqning o‘zaro vaziyatlari;


Chiziq turlari

Barcha sanoat, qurilish va boshqa konstruktorlik hujjatlari chizmalari O‘z DSt 2.303:2003 yoki GOST 2.303-68 ko‘rsatmasiga binoan turli yo‘g‘onlikda chiziladi. Ularning har qaysisining o‘z vazifasi bor. Chiziq yo‘g‘onligi s harfi bilan belgilanadi.

1. **Asosiy yo‘g‘on tutash chiziq.** Buyumning ko‘rinadigan kontur chizig‘ini, sirtlarning ko‘rinadigan kesishgan chizig‘ini, chetga chiqarib chizilgan kesim va qirqim tarkibiga kiruvchi kontur chiziqlarini chizmada tasvirlashda ishlataladi. Asosiy yo‘g‘on tutash chiziqning yo‘g‘onligi chizmaning kattaligi va murakkabligiga, shuningdek, chizma formatiga qarab $s=0.5$ mm dan 1.4 mm gacha tanlab olinadi (9-chizma.a.).

2. **Shtrix chiziq.** Ko‘rinmaydigan kontur va o‘tish chiziqlarini chizmada tasvirlash uchun ishlataladi (9-chizma.b.).

3. **Ingichka tutash chiziq.** Bevosita ko‘rinishda bajarilgan kesim konturlarini, chiqarish va o‘lcham chiziqlarini, shtrixlash chiziqlarni, chetga chiqarish va tokcha chiziqlarini, proyeksiyalar o‘qini, yondosh detallarni tasvirlash chiziqlarini tasavvur qilinadigan o‘tish chiziqlarini, tekisliklarning izlarini va maxsus yasashlarda xarakterli nuqtalarni topish chiziqlarini chizmada tasvirlash uchun ishlataladi (9-chizma.d.).



9-chizma

4. *Ingichka shtrix-punktir chiziq.* O‘q va markaz chiziqlarini, chetga chiqarib yoki bevosita ko‘rinishda bajarilgan kesimlarning simmetriya o‘qlarini tasvirlashda ishlatiladi. Shtrix-punktir chiziqlar nuqta bilan emas, shtrix chiziq bilan kesishishi kerak (9-chizma.e.).

5. *Ingichka ikki nuqtali shtrix-punktir chiziq.* Buyumlarning ayrim qismlaridagi eng chekka yoki oraliq vaziyatlarini tasvirlash, yoyilmadagi bukilish va ko‘rinish bilan ustma-ust joylashgan yoyish chiziqlarini tasvirlashda ishlatiladi (9-chizma).

6. *Ingichka tutash to‘qinsimon chiziq.* Ko‘rinish va qirqimlarda uzilish, ya’ni chegaralash chiziqlarini tasvirlashda foydalaniladi (9-chizma.n.).


7. *Uzuq chiziq.* Chizmada kesuvchi tekislikning izi (yo‘nalishini) ko‘rsatishda, ya’ni kesish chizig‘ini tasvirlashda qo‘llaniladi (9-chizma.m.).

Asosiy yo‘g‘on tutash chiziqning yo‘g‘onligi bitta formatdag‘i barcha tasvirlar uchun bir xil olinadi. Qolgan barcha chiziqlar yo‘g‘onligi tanlangan asosiy yo‘g‘on tutash chiziqqa nisbatan aniqlaniladi.

Chizmaning asosiy yozuvi o‘rnini yozish tartibi

O‘z.DSt 2.104:2003 sanoatning hamma tarmoqlarida va loyihalash tashkilotlarida bajariladigan barcha chizmalarning *asosiy yozuvi* o‘lchamlarini va mazmunini aniqlaydi. A4 formatli listlarda asosiy yozuv formatning faqat ensiz tomonlariga joylashtiriladi va A4 format faqat vertikal holatda chiziladi. Qolgan chizmachilik formatlarda pastki o‘ng burchakka asosiy yozuv joylashtiriladi. Asosiy yozuv namunasi o‘lchamlari bilan berilgan (10-chizma).

Asosiy yozuvni to‘ldirish tartibi bo‘yicha bazi bir ko‘rsatmalar (11-chizma) da ko‘rsatilgan.



10-chizma

Asosiy yozuvni to'ldirish tartibi

					Chizma geometriya		
					Berilgan vazifaning nomi		
					Liter	Massa	Mashshab
					List	ListHar	
					Kafedra nomi	TVCHOP	kurs yonaliish
Chizdi	F.I.Sh	Imzo	Suru				
Tekshir	Vatalba						
O'qituvchi	O'qituvchi						
O'qildi							

11-chizma

Nuqtaning birinchi oktantdagi proyeksiyasi


Mustaqil ta'lim: Koordinatalari berilgan A nuqtaning fazoviy holati qurilsin va epyuri bajarilsin.(12-chizma).

Masalani yechimi. Fazodagi A nuqtaning koordinatasi $A(40, 80, 60)$ berilgan bo'lsin (12-chizma). A nuqtaning Ox , Oy , Oz o'qlardagi koordinatalari musbat ishorali bo'lganligi uchun dastlab, formatning chap qismiga I oktantning fazoviy holati chiziladi (12-chizma). I oktantning fazoviy holati va epyuridagi koordinata o'qlariga A nuqtaning berilgan koordinatasi bo'yicha mos ravishda 40 mm (A_x), 80 mm (A_y), 60 mm (A_z) masofalari o'lchab qo'yiladi hamda A_x , A_y , A_z nuqtalar aniqlanadi (12-chizma). A' nuqtani topish uchun A_x nuqtadan y o'qiga parallel qilib musbat tomoniga chiziq tortamiz va A_y nuqtadan x o'qiga parallel qilib musbat tomonaga chiziq

tortamiz, chizilgan x va y o‘qlariga parallel bo‘lgan chiziqlarimiz perpendikulyar kesishib A' (*horizontal H*) tekislikdagi nuqtani beradi. A'' nuqtani topish uchun A_x nuqtadan z o‘qiga parallel qilib musbat tomonga chiziq tortamiz va A_z nuqtadan x o‘qiga parallel qilib musbat tomonga chiziq tortamiz, chizilgan x va z o‘qlariga parallel bo‘lgan chiziqlarimiz perpendikulyar kesishib A'' (*frontal V*) tekislikdagi nuqtani beradi. A''' nuqtani topish uchun A_z nuqtadan y o‘qiga parallel qilib musbat tomonga chiziq tortamiz va A_y nuqtadan z o‘qiga parallel qilib musbat tomonga chiziq tortamiz, chizilgan z va y o‘qlariga parallel bo‘lgan chiziqlarmiz perpendikulyar kesishib A''' (*profil W*) tekislikdagi nuqtani beradi.

A nuqtaning fazodagi o‘rnini aniqlash uchun A' dan Oz ga, A'' dan Oy ga, A''' dan Ox ga parallel chiziqlar o‘tkaziladi. O‘tkazilgan chiziqlar o‘zaro yagona nuqtada perpendikulyar kesishib, fazodagi A nuqtaning o‘rnini aniqlaydi.

A nuqtaning fazodagi o‘rni hosil qilinadi (*qizil rangda*). A' , A'' va A''' nuqtalar (*ko‘k rangda*) bo‘yaladi.



12-chizma

Chizmaning fazoviy holatida proyeksiyalar tekisliklari shartli ravishda chegaralanadi.

Epyuri¹ asosiy yozuv ustidagi formatning qolgan qismiga chiziladi. Fazoviy holatdagi Ax , Ay va Az nuqtalar epyur holatiga ko‘chriladi. Fazoviy holatda A' , A'' va A''' nuqtalarni koordinata o‘qlariga parallel chiziq chizib topamiz. A , A'' va A''' nuqtalarni ko‘k rangda nuqta qilib belgilaymiz.

Ish so‘nggida chizma taxt qilinadi, ya’ni chizma qog‘ozi hoshiyasi, asosiy yozuv o‘rni chiziladi va u belgilangan tartibda to‘ldiriladi (12-chizma).

Masalani bajarish uchun variantlar 1 va 2-jadvaldan olinadi.

1-jadval

1-Darajali murakkablik

Variant	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z			x	y	z
1	A	30	40	60	2	A	20	30	60
Variant	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
3	A	10	30	10	4	A	40	30	80
Variant	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
5	A	50	30	10	6	A	10	40	80

¹ Epyur deb o‘zaro perpendikulyar bo‘lgan proyeksiyalar tekisliklarining (H, V, W) koordinata o‘qlari (x, y, z) atrofida bitta tekislik holatiga kelguncha aylantirilgan vaziyatiga aytildi. Bunda V tekislik qo‘zg‘almaydi.

1-jadval davomi

		Variant			Nuqta			Koordinatalar					Variant		Nuqta			Koordinatalar		
7	A				x	y	z						8	A		x	y	z		
					30	30	80								50	60	60			
9	A				x	y	z						10	A		x	y	z		
					80	70	60								70	60	10			
11	A				x	y	z						12	A		x	y	z		
					50	20	60								30	30	70			
13	A				x	y	z						14	A		x	y	z		
					30	80	80								60	30	50			
15	A				x	y	z						16	A		x	y	z		
					40	40	60								40	60	20			

Variant	Niqta	Koordinatalar		
		x	y	z
17	A	50	80	60
18	A	60	30	30

1-jadval davomi

Variant	Niqta	Koordinatalar		
		x	y	z
19	A	70	40	70
20	A	80	20	20
Variant	Niqta	Koordinatalar		
x	y	z		
21	A	10	40	70
22	A	50	30	40
Variant	Niqta	Koordinatalar		
x	y	z		
23	A	10	10	60
24	A	50	30	80
Variant	Niqta	Koordinatalar		
x	y	z		
25	A	20	40	40
26	A	40	50	60
Variant	Niqta	Koordinatalar		
x	y	z		
27	A	50	70	70
28	A	80	80	30

		Variant	Nuqta	Koordinatalar					Variant	Nuqta	Koordinatalar		
				x	y	z	x	y			x	y	z
29	A	10		30		50	10	50	80				
31	A	20		40		70	70	50	10				

2-jadval

2-Darajali murakkablik

		Variant	Nuqta	Koordinatalar					Variant	Nuqta	Koordinatalar		
				x	y	z	x	y			x	y	z
1	A	0		30		20	30	0	0				
3	A	0		0		40	50	0	10				
5	A	0		0		0	60	0	50				
7	A	0		40		00	40	50	0				
9	A	0		0		50	80	0	0				

Variant	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z			x	y	z
11	A	0	60	20	12	A	30	0	100

2-jadval davomi

Variant	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z			x	y	z
13	A	0	30	0	14	A	70	0	0
Variant	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
15	A	0	70	20	16	A	30	0	70
Variant	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
17	A	0	50	20	18	A	40	0	40

Nazorat savollari

1. Nuqtaning markaziy proyeksiyasi qanday yasaladi?
2. Qanday holda to‘g‘ri chiziqning markaziy proyeksiyasi nuqta bo‘ladi?
3. Markaziy proyeksiyalashda nimalar berilgan bo‘ladi?
4. Parallel proyeksiyalash usuli qanday bajariladi?
5. Parallel proyeksyalashda nimalar berilgan bo‘ladi?


1.Nazorat uchun test

1. Qaysi nuqta birinchi chorakning bissektor tekisligida joylashganni chizib bering?

- A) Q (30, 40, 50); C) T (20,50,70);
 B) V (100, 50, 50); D) J (10, 00, 40);


2. A nuqtaning geometrik o‘rnini aniqlang?

- A) Frontal proyeksiyalar tekisligida.
- B) Gorizontal proyeksiyalar tekisligida.
- C) Profil proyeksiyalar tekisligida.
- D) [Ox) koordinata o‘qida.




3. A nuqtaning geometrik o‘rnini aniqlang?

- A) Frontal proyeksiyalar tekisligida.
- B) Gorizontal proyeksiyalar tekisligida.
- C) Profil proyeksiyalar tekisligida.
- D) [Ox) koordinata o‘qida.



4. Qanday proyeksiyalash usuli ko‘rsatilgan?

- A) Markaziy proyeksiyalash.
- B) Son belg‘li proyeksiyalash.
- C) Parallel proyeksiyalash.
- D) Vektorli proyeksiyalash.




5. Nuqtaning frontal (V) proyeksiyalar tekisligidan uzoqligni qaysi o‘q belgilaydi?

- A) [ox].
- B) [oz].
- C) [oy].
- D) [ov].

6. Qaysi proyeksiyalash usuli ko‘rsatilgan?

- A) Markaziy proyeksiyalash.
- B) Parallel proyeksiyalash.
- C) Vektorli proyeksiyalash.
- D) Qiysiq burchakli parallel proyeksiyalash.



7. Koordinatalari berilgan A nuqta ($A_x=10$, $A_y=40$, $A_z=30$) qaysi proyeksiya tekisliklariga yaqin joylashgan ?

- A) Profil (W).
- B) Frontal (V).
- C) Gorizontal (H).
- D) Aksonometriya.

8. OZ o‘qining nomi nima?

- A) Aplikata.
- B) Ordinata.
- C) Abssissa.
- D) Koordinata boshi.

9. Agar geometrik figura frontal proyeksiyalar tekisligiga tegishli bo'lsa uning gorizontal proyeksiyasi qayerda bo'ladi?

- A) OY o'qida.
- B) OX o'qida.
- C) OZ o'qida.
- D) Fazoda.

10. Uchunchi oktantning ishoralarini ko'rsating?

- A) — , — , + ,
- B) +, + , + ,
- C) +, — , — ,
- D) — , — , — ,

AB kesmaning birinchi oktantdagi proyeksiyasi

1.1 masala. Koordinatalari berilgan AB to‘g‘ri chiziq kesmasining fazoviy holati qurilsin, epyuri bajarilsin va to‘la tahlil qilinsin (kesma uchlari I oktantda joylashgan).(13-chizma).


Oktant. Uchta o‘zaro perpendikulyar tekisliklarning fazoni 8 ta bo‘lakka bo‘lishi.

Masalani yechimi. Fazodagi AB to‘g‘ri chiziq kesma uchlaringning A (40, 80, 60) va B (80, 40, 40) nuqtalar koordinatalari berilgan bo‘lsin (13-chizma). A va B nuqtalarning Ox, Oy, Oz o‘qlardagi koordinatalari musbat ishorali bo‘lganligi uchun dastlab, I oktantning fazoviy holati va epyuri chiziladi (5-chizma). I oktantning fazoviy holati va epyuridagi koordinata o‘qlariga A nuqtaning berilgan koordinatasi bo‘yicha mos ravishda 40 mm (A_x), 80 mm (A_y), 60 mm (A_z) masofalari o‘lchab qo‘yiladi hamda A_x, A_y, A_z nuqtalar aniqlanadi. A_x nuqtadan y va z o‘qlariga, A_y nuqtadan Ox va Oz o‘qlariga, A_z nuqtadan Ox va Oy o‘qlariga parallel bog‘lovchi to‘g‘ri chiziqlar o‘tkaziladi. Bu bog‘lovchi chiziqlar mos ravishda perpendikulyar kesishib, A nuqtaning gorizontal (A'), frontal (A'') va profil (A''') proyeksiyalarini beradi.

A nuqtaning fazodagi o‘rnini aniqlash uchun A' dan Oz ga, A'' dan Oy ga, A''' dan Ox ga parallel chiziqlar o‘tkaziladi. O‘tkazilgan chiziqlar o‘zaro yagona nuqtada kesishib, fazodagi A nuqtaning o‘rnini aniqlaydi.

B nuqtaning B'(gorizontal), B''(frontal), B'''(profil) proyeksiyalari, B nuqtani fazodagi o‘rni huddi A nuqtaniki kabi berilgan koordinatasi asosida aniqlanadi.

Fazodagi A va B nuqtalar tutashtirilib, AB kesmaning fazodagi o‘rni hosil qilinadi (qizil rangda). A va B nuqtalarning aniqlangan bir nomli proyeksiyalari, ya’ni A' va B', A'' va B'', A''' va B''' nuqtalar o‘zaro tutashtiriladi (ko‘k rangda). Natijada A'B', A''B'' va A'''B''' kesmalar hosil bo‘lib, ular fazodagi AB kesmaning mos ravishda gorizontal, frontal va profil proyeksiyalari hisoblanadi.



13-chizma

Endi AB kesma tahlil qilinadi. To 'g'ri chiziq kesmasining to 'liq tahlili deganda uning haqiqiy uzunligini, proyeksiyalar tekisliklari

perpendikulyar chizig‘imizni kesguncha davom ettiramiz, va ikki chiziq kesishib $2'_H$ izi (*AB kesmani H tekislik bilan kesishib hosil qilgan nuqtasi*) hosil bo‘ladi. *AB* kesmani frontal izini topish uchun $A'B'$ kesma frontal tekislikka yaqin tomonini to‘g‘ri chiziq bilan [ox] o‘qini kesguncha davom ettirib $1'_V$ nuqtani topamiz. Gorizontaldagi $1'_V$ nuqtadan x o‘qiga perpendikulyar qilib $A''B''$ tomonga to‘g‘ri chiziq tortamiz. Frontal tekislikda joylashgan $A''B''$ kesmani chizilgan perpendikulyar chizg‘imizni keskuncha davom ettiramiz, va ikki chiziq kesishib $1''_V$ izi (*AB kesmani V tekislik bilan kesishib hosil qilgan nuqtasi*) hosil bo‘ladi. (19-chizma)

Epyur holatini chizishda ham yuqoridagi fazoviy masalaning yechimi takrorlanadi.

Ish so‘nggida chizma taxt qilinadi, ya‘ni chizma qog‘ozni hoshiyasi, asosiy yozuv o‘rnini chiziladi va u belgilangan tartibda to‘ldiriladi (19-chizma).

Birinchi oktantdagi AB kesmani gorizontal, frontal va profil izlarni topish

Mustaqil ta‘lim. *AB* kesmani gorizontal (*H*), frontal (*V*) va profil (*W*) tekisliklaridagi izlari topilsin. Bilim darajasiga qarab profil tekislikdagi izi qo‘shiladi. (20-chizma).

Masalaning yechilishi. Chizmada A (90, 40, 20) va B (40, 10, 60) kesmani o‘lchamlari berilgan. *AB* kesmani koordinata o‘lchamlari musbat bo‘lganligi uchun I-oktantda joylashgan. Chizma formatini teng ikkiga bo‘lib olib chap qismiga fazoviy holatini va o‘ng qismiga epyurni chizamiz. Berilgan o‘lcham bo‘yicha *AB* kesmani topish yuqoridagi 19-chizma asosida topiladi. *AB* kesmani nomini a to‘g‘ri chiziqqa aylantiramiz.

Chizmada a chiziqning gorizontal izini topish uchun a'' chiziqni [ox] o‘qini kesguncha davom ettiramiz, [ox] o‘qni kesib a''_H nuqtani hosil qiladi, topilgan a''_H nuqtadan [oy] o‘qiga parallel o‘tkaziladi va a' chiziqni davom ettirib, ikki chiziqni kesishish nuqtasi a''_H ni topamiz. (20-chizma)

Chizmada frontal izini topish uchun a' gorizontal proyeksiyasini [ox] o‘qini kesguncha davom ettiramiz. Chiziq [ox] o‘qni kesib a''_V nuqtani beradi. [ox] o‘qidagi a''_V nuqtadan frontal tekislikda yotuvchi,

[*oz*) koordinata o‘qiga parallel chiziq chizamiz va a'' chiziqni davom ettirib, ikki chiziq kesishgan nuqtani a_v'' bilan belgilaymiz. (20-chizma)

Profil tekislikdagi a chiziqning izini topish uchun a'' frontal proyeksiyasini davom ettirib [*oz*] o‘qida a_w'' topamiz. Topilgan a_w'' nuqtadan [*oz*] o‘qiga perpendikulyar chiziq chizamiz. Profildagi a'' chiziqni davom ettirsak, bu ikkala chiziq ikkinchi oktantda kesishib a_w''' nuqtani beradi. (20-chizma)

Chizmada a'_H , a''_V va a'''_W nuqtalar qizil rangda belgilanadi. Fazoviy AB kesma (*qizil rangda*) va AB Gorizontal, frontal profil kesma (*ko‘k rangda*) chiziladi. Fazoda joylashgan *qizil rangdagi* AB kesmani ikki tamonga davom etirganda proyeksiya tekisliklarni a'_H , a''_V va a'''_W nuqtalarni kesib o‘tadi. Agarda fazodagi uchta nuqta a'_H , a''_V va a'''_W bir to‘g‘ri chiziqdagi yotsa AB kesmaning frontal, gorizontal va profil izlari to‘g‘ri bajarilgan bo‘ladi. (20-chizma)


Chizmaning fazoviy holatida proyeksiyalar tekisliklari shartli ravishda chegaralanadi.

Ish so‘nggida chizma taxt qilinadi, ya’ni chizma qo‘g‘oz hoshiyasi va asosiy yozuv o‘rnini chiziladi va u belgilangan tartibda to‘ldiriladi. (20-chizma).

Masalani bajarish uchun variantlar 12-jadvaldan olinadi.

Masalani bajarish uchun variantlar jadvalda ko‘rsatilganidek olinadi.

To‘g‘ri chiziqning izini topish uchun masalada talabaning bilim darajasidan kelib chiqqan holda beriladi.



20-chizma

12-jadval

№	Berilgan fazodagi kesma	Murakkablik darajasi	jadval	chizma
1	<i>AB</i>	Birinchi darajali murakkablik	3-jadval	11-chizma
		Ikkinchi darajali murakkablik	4-jadval	11-chizma
2	<i>KT</i>	Birinchi darajali murakkablik	5-jadval	11-chizma
		Ikkinchi darajali murakkablik	6-jadval	11-chizma
3	<i>CD</i>	Birinchi darajali murakkablik	10-jadval	11-chizma
		Ikkinchi darajali murakkablik	11-jadval	11-chizma

ABD tekislikning gorizontal va frontal izni topish

2.1 masala. *ABD uchburchak orqali berilgan tekislikning frontal va gorizontal izlari aniqlansin (21-chizma)*

Masalani yechimi. Chizmada *ABD* uchburchak tekisligining uchlari koordinatalari $A(90, 20, 40)$, $B(60, 60, 10)$, $D(20, 10, 60)$ berilgan. Epyurda *ABD* uchburchak tekisligining gorizontal $A'B'D'$ va frontal $A''B''D''$ proyeksiyalarini qurib olamiz. (21-chizma)

Keyin uchburchak tekislikni tashkil qiluvchi AB , BD , DA tomonlarini frontal va gorizontal izlarini aniqlash kerak bo‘ladi. Kesmaning izini topishda [ox] o‘qiga kesmaning qaysi tomoni birinchi kelsa, shu tomondan [ox] ga perpendikulyar chiqadi. Bunda AB chiziqning frontal izini aniqlash uchun $A'B'$ proyeksiya [ox] o‘qini kesguncha davom ettiriladi va $1'_V$ nuqta aniqlanadi. Aniqlangan $1'_V$ dan [ox] o‘qiga perpendikulyar qilib o‘tkazilgan bog‘lovchi chiziq $A''D''$ bilan kesishib, AB to‘g‘ri chiziqning $1''_V$ frontal izini beradi.

Endi fazodagi AB chiziqning gorizontal izi aniqlanadi. Buning uchun $A''B''$ proyeksiya [ox] o‘qini kesguncha davom ettiriladi va $2''_H$ nuqta aniqlaniladi. Aniqlangan $2''_H$ dan [ox] ga perpendikulyar qilib o‘tkazilgan bog‘lovchi chiziq $A'B'$ ni kesib, AB to‘g‘ri chiziqning $2'_H$ gorizontal izini beradi.

Chizmadagi BD ($B'D', B''D''$) to‘g‘ri chiziqning 3_H ($3'_H$, $3''_H$) gorizontal va 4_V ($4'_V$, $4''_V$) frontal izlari ham shu tartibda aniqlanadi.

AB va BD to‘g‘ri chiziqning aniqlangan $1''_V$ va $4''_V$ frontal izlari tutashtirilsa fazodagi ABD ($A'B'D'$, $A''B''D''$) uchburchak orqali berilgan tekislikning P_V frontal izi hosil bo‘ladi. Ushbu tekislikning P_H gorizontal izi AB va BD to‘g‘ri chiziqlarning aniqlangan $2'_H$ va


$3'_H$ gorizontal izlarini tutashtirish orqali aniqlaniladi. ABD ($A'B'D'$, $A''B''D''$) uchburchak orqali berilgan tekislikning P_V frontal va P_H gorizontal izlari o‘zaro [ox] o‘qida kesishadi hamda bu nuqta P_X deb nomlanadi.

Chizmada ABD ($A'B'D'$, $A''B''D''$) tekislikning P_V va P_H izlari [ox] ga parallel bo‘lib qolsa, [ox] da yotuvchi P_X nuqta cheksizlikda xosmas chiziqdagi bo‘ladi. Bunday hollarda uchburchak tekisligi profil tekisliklarga perpendikulyar vaziyatda joylashgan bo‘ladi. P_X yoniga cheksizlik belgisi (∞) qo‘yiladi.

Masalaning so‘nggida chizma taxt qilinadi (21-chizma).

Chizilgan chizmani to‘g‘riligni aniqlash uchun, ABD uchburchakda frontal va gorizontal maxsus chiziqlar chiziladi. Frontal f'' va h' chiziqlar tekislikning P_V va P_H izlariga mos ravishda parallel bo‘lsa ($P_V \parallel f'', P_H \parallel h'$), demak masalaning yechimi to‘g‘ri ekan. Aks holda yechim noto‘g‘ri bo‘ladi.

2.1-masalani bajarish uchun variyantlar 13- jadvaldan olinadi.



21-chizma

13-jadval

1-darajali murakkablik

		Variant	Nuqta	Koordinatalar					Variant	Nuqta	Koordinatalar		
				x	y	z	x	y			x	y	z
1	A	80	30	20			2	A	30	60	20		
	B	30	60	10				B	60	10	30		
	D	50	10	50				D	80	30	10		
3	Variant	Nuqta	Koordinatalar				4	Variant	Nuqta	Koordinatalar			
			x	y	z					x	y	z	
	A	30	50	10				A	20	30	10		
5	Variant	Nuqta	Koordinatalar				6	Variant	Nuqta	Koordinatalar			
			x	y	z					x	y	z	
	A	20	60	10				A	10	80	20		
7	Variant	Nuqta	Koordinatalar				8	Variant	Nuqta	Koordinatalar			
			x	y	z					x	y	z	
	A	10	10	70				A	20	20	50		
9	Variant	Nuqta	Koordinatalar				10	Variant	Nuqta	Koordinatalar			
			x	y	z					x	y	z	
	B	50	50	10				A	80	10	20		
11	Variant	Nuqta	Koordinatalar				12	Variant	Nuqta	Koordinatalar			
			x	y	z					x	y	z	
	D	80	20	30				A	60	20	10		

13-jadval davomi

		Variant	Nuqta	Koordinatalar					Variant	Nuqta	Koordinatalar		
				x	y	z	x	y			x	y	z
9	A	20	60	20			10	A	80	10	20		
	B	40	30	60				B	30	20	50		
	D	80	20	10				D	60	30	10		
11	Variant	Nuqta	Koordinatalar				12	Variant	Nuqta	Koordinatalar			
			x	y	z					x	y	z	
	A	60	30	20				A	60	20	10		
11	B	10	10	30				B	20	60	10		
	D	80	10	40				D	40	10	40		

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
13	A	80	60	10
	B	40	40	80
	D	20	80	40

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
14	A	80	10	20
	B	40	10	50
	D	20	60	20

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
15	A	70	40	10
	B	40	10	10
	D	20	70	70

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
16	A	80	20	20
	B	20	10	50
	D	50	40	10

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
17	A	80	30	20
	B	50	10	60
	D	20	80	10

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
18	A	80	40	20
	B	50	10	60
	D	20	50	10

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
19	A	70	70	40
	B	40	10	60
	D	20	80	10

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
20	A	70	10	30
	B	10	20	50
	D	50	50	10

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
21	A	30	80	10
	B	20	30	80
	D	70	10	30

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
22	A	40	70	10
	B	80	20	10
	D	20	20	70

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
23	A	10	40	10
	B	50	10	70
	D	70	70	30

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
24	A	20	50	10
	B	80	30	10
	D	60	10	60

13-jadval davomi

13-jadval davomi

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
25	A	30	20	10
	B	80	40	20
	D	50	60	60
Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
27	A	80	20	50
	B	30	60	10
	D	50	10	80
Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
29	A	80	20	60
	B	10	80	20
	D	30	10	10
Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
26	A	20	20	50
	B	70	10	60
	D	50	40	10
Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
28	A	20	50	30
	B	80	80	10
	D	50	20	60
Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
30	A	70	60	10
	B	10	40	50
	D	50	10	60


14-jadval

2-darajali murakkablik

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
1	A	20	30	40
	B	80	50	-20
	D	50	10	70
Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
3	A	80	-10	20
	B	30	20	50
	D	60	30	10
Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
5	A	80	20	20
	B	20	-10	-40
	D	50	40	-10
Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
6	A	80	-20	50
	B	30	-60	10
	D	50	10	80
Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z

Mustaqil ta'lim. Geometrik shakllarning yetishmagan proyeksiyalari tiklansin va tekislikning gorizontal , frontal izlari yasalsin. (15-jadval)

15-jadval



Nazorat savollari

1. To‘g‘ri chiziqning proyeksiyalari qanday hosil bo‘ladi?
2. Umumiy vaziyatdagi to‘g‘ri chiziq nima?
3. To‘g‘ri chiziqning izlari nima?
4. Qanday xususiy vaziyatdagi to‘g‘ri chiziqlarni bilasiz?
5. Umumiy vaziyatdagi to‘g‘ri chiziq kesmasining haqiqiy uzunligi qanday yasaladi?
6. O‘zaro parallel to‘g‘ri chiziqlarning proyeksiyalari qanday bo‘ladi?
7. Kesishuvchi va ayqash to‘g‘ri chiziqlarning proyeksiyalari bir-biridan qanday farqlanadi?
8. To‘g‘ri burchakning proyeksiyalanishi haqidagi teoremani tushuntirib bering.
9. Ko‘rinishlikni aniqlashda konkurent nuqtalardan qanday foydalaniladi?

4.Nazorat uchun test

1. Umumiy vaziyatdagi tekislikning nechta izi bO‘ladi?

- A) Bitta.
- B) Ikkita.
- C) Uchta.
- D) To‘rtta.

2. Xususiy vaziyatdagi tekislikning nechta izi bO‘ladi?

- A) O‘nta.
- B) Ikkita.
- C) Uchta.
- D) To‘rtta.

3. Ikkita perpendikulyar tekisliklar kesishganda nima hosil bo‘ladi?

- A) Aylana.
- B) Kvadrat.
- C) To‘g‘ri chiziq.
- D) Tekislik.

4. Nechta tekislikning kesishidan oktant hosil bo‘ladi?

- A) O‘nta.
- B) Ikkita.

- C) Uchta.
- D) To'rtta.

5. Ikkita parallel to‘g‘ri chiziq tekislik hosil qiladimi?

- A) Ha.
- B) Yo‘q.
- C) To‘g‘ri javob yo‘q.
- D) Barchasi to‘g‘ri.

6. Fazoda Ustma-ust yotmagan uchta nuqta orqali nechta tekislik o‘tkazish mumkin?

- A) O‘nta.
- B) Ikkita.
- C) Bitta.
- D) To‘rtta.

7. Fazoda o‘zaro keshishuvchi ikki to‘g‘ri chiziq nechta tekislik hosil qiladi?

- A) O‘nta.
- B) Ikkita.
- C) Bitta.
- D) To‘rtta.

8. Tekislikning H bilan kesishgan chizig‘i nima deyiladi?

- A) Gorizontal izi.
- B) Gorizontal izi.
- D) Profil izi.
- C) Ixtiyopriy.

9. Tekislikning W bilan kesishgan chizig‘i nima deyiladi?

- A) Frontal izi.
- B) Gorizontal izi.
- D) Profil izi.
- C) Ixtiyopriy.

10. Tekislikning V bilan kesishgan chizig‘i nima deyiladi?

- A) Frontal izi.
- B) Gorizontal izi.
- D) Profil izi.
- C) Ixtiyopriy.

Eng qisqa masofaga oid mustaqil ta'lim va grafik vazifalar

S nuqtadan tekislikkacha bo'lgan qisqa masofa.

Mustaqil ta'lim. *S nuqtadan P tekislikkacha bo'lgan eng qisqa masofa aniqlansin. (22-chizma).*

Berilgan variant asosida chizmani nisbatini saqlagan holda chizmachilik formatiga ko'chiramiz va kompanovkaga e'tibor beramiz.

S" nuqtadan P_v tekislik iziga perpendikulyar va frontal tekislikga proyeksiyalovchi T tekislik o'tkazamiz. Frontal tekislikda P_v va T_v tekisliklarimiz kesishib 1" nuqtani beradi. Frontaldagi 1" nuqtaning gorizontaldagi 1' proyeksiyasi [ox] o'qi perpendikulyar tushadi va shu o'qda bo'ladi. Gorizontaldagi P_h va T_h tekisliklar kesishib bizga 2' nuqtani hosil qiladi. Gorizontaldagi 2' nuqtaning frontaldagi 2" proyeksiyasi [ox] o'qdagi T_x ga perpendikulyar tushadi va ustma-ust bo'ladi. Frontaldagi 1" va 2" nuqtalar tutashgani uchun gorizontaldagi 1' va 2' nuqtalar ham tutashadi. Gorizontaldagi S' nuqtadan P_h tekislik iziga perpendikulyar chiziq chizamiz va bu chiziq 1'2' kesmamizni kesib K' nuqtani hosil qiladi. Gorizontal dagi K' nuqta 1'2' kesmada bo'lgani uchun K' dan [ox] o'qiga perpendikulyar qilib 1"2" kesmada K" nuqtani topamiz. Bizga S nuqtadan P tekislikga tushgan perpendikulyar chizig'imiz P tekislik bilan keshishib K nuqtani beradi. SK kesmamiz umumiy vaziyatda bo'lganligi sababli uning haqiqiy kattaligi AB kesmani topganga o'xshatib topamiz. Gorizontaldagi K' nuqtadan [ox] o'qiga parallel chiziq chizib 3 nuqta K'K" chiziqda topamiz. Frontaldagi S"K" kesmaga perpendikulyar chiziq chiqaramiz S" dan. Perpendikulyar chizig'imizga K'3 masofani olib kelib qo'yamiz. Perpendikulyar chiziq S dan chiqqani uchun topilgan nuqtani S₀ qilib belgilaymiz. Frontalda hosil bo'lgan S₀ va K" nuqtani birlashtramiz. S nuqtadan P tekislikgach bo'lgan qisqa masofa S₀K" kesma bo'ladi va S₀K" kesmaga haqiqiy kattalik belgisi qo'yiladi.

Masalaning so'ngida chizma taxt qilinadi (22-chizma).

Chizilgan chizmani to'g'riligni aniqlash uchun gorizontalda joylashgan S'K" kesmani haqiqiy kattaligini topishda amalda bajargan jarayonni bajaramiz. Shunda S₀K kesma (S₀K"= S₀K') bo'lsa chizma


to‘g‘ri bajarilgan bO‘ladi. Aks holda yechim noto‘g‘ri bO‘ladi.

Mustaqil ta'lim bajarish uchun variyantlar 16- jadvaldan olinadi.

Bu masalani ishlanish algoritmi

Masalani yechish uchun to‘g‘ri chiziqning tekislikka perpendikul-yarligi, to‘g‘ri chiziqning tekislik bilan kesishishi, nuqtadan tekislik-ka qadar masofa mavzulari takrorlanadi.

1. S nuqtadan P tekislikka perpendikulyar o'tkaziladi SMO -tka-zilgan perpendikulyar orqali yordamchi proyeksiyalovchi $Q(Q_H, Q_V)$ tekislik o'tkaziladi;
 2. Yordamchi proyeksiyalovchi Q tekislik bilan berilgan P tekislikning kesishish chizig'i $12(1'2'; 1''2'')$ topiladi;
 3. Kesishish chizig'i $1'2'$ bilan perpedikulyar p' ning uchrashgani nuqtasi – tekislik bilan perpendikulyarning uchrashish nuqtasi K' bo'ladi;




22-chizma

4. $SK(S'K'; S''K'')$ – S nuqtadan ABC tekislikgacha bo‘lgan qisqa masofaning proyeksiyasi bo‘лади;


5. Topilgan qisqa masofani haqiqiy uzunligi $K'S_0$ ni to‘g‘ri burchakli uchburchak usulidan foydalanib topamiz.

16-jadval




16-jadval davomi


7




8




9




10



11




12




16-jadval davomi


13




14




15




16



17




18




16-jadval davomi


19




20




21




22



23




24




16-jadval davomi


25




26




27




28



29



30



S nuqtadan ABD tekislikacha qisqa masofa


2.2 masala. S nuqtadan ABD uchburchak tekisligigacha bo‘lgan eng qisqa masofa aniqlansin. (23-chizma).

Masalani yechimi. Dastlab ABD uchburchak tekisligining berilgan uchlarini A (90, 10, 10), B (60, 60, 80), D (20, 30, 60) koordinatalari bo‘yicha $\Delta A'B'D'$ gorizontal va $\Delta A''B''D''$ frontal proyeksiyalari chiziladi. Shu chizmaning o‘zida S nuqtaning S (20, 60, 00) koordinatalari bo‘yicha uning S' gorizontal va S'' frontal proyeksiyalari ham belgilab olinadi. Namunada S nuqtaning [oz] o‘qi bo‘yicha koordinatasi 0 ga teng bo‘lganligi uchun u H gorizontal proyeksiyalar tekisligida joylashgan.

Endi S (S', S'') nuqtadan ΔABD ($\Delta A'B'D'$, $\Delta A''B''D''$) tekisligiga perpendikulyar to‘g‘ri chiziq tushiriladi. Buning uchun tekislikning bosh chiziqlari, ya’ni h (h', h'') gorizontali va f (f', f'') frontali o‘tkaziladi. Gorizontal bosh (maxsus) chizig‘i ΔABD da yotgan va frontalda [ox] o‘qiga parallel bo‘lgan h (h', h'') chiziqdир. D' nuqtadan [ox] o‘qiga parallel qilib qarshisidagi tomonini kesguncha davom ettiramiz, chiziq A''B'' tomonini 1' nuqtada kesadi. Frontaldagi A''B'' tomondagи 1' nuqtani gorizontaldagi A'B' tomoniga olib tushib 1' nuqtani topamiz. Gorizontaldagi D' nuqta bilan 1' nuqtani tutashtirib h' chiziqni belgilaymiz. D''1' kesmani h'' va D'1' kesmani h' deb belgilaymiz. Frontal bosh chiziq gorizontaldagi D' nuqtadan [ox] ga parallel qilib qarshisidagi A'B' tomonni kesguncha davom ettirib o‘tkaziladi, A'B' da 2' hosil qiladi. A'B' tomondagи 2' nuqtadan bog‘lovchi chiziqni frontaldagi A''B'' tomonga chiqarib 2'' nuqta topiladi va D''2'' nuqtalar tutashtiriladi. D''2' kesmani f' va D''2'' kesmani f'' deb belgilanadi.

S'' nuqtadan f'' ga perpendikulyar t'' ni, S' dan h' ga perpendikulyar t' ni o‘tkazamiz. So‘ngra t'' orqali frontalga proyeksiyalovchi T tekislik o‘tkaziladi. T tekislikning T_V izi $\Delta A''B''D''$ uchburchakning A''D'' tomonini 3'' va B''D'' tomonini 4'' nuqtada kesadi. A''D'' kesmada joylashgan 3'' nuqtadan bog‘lovchi chiziqni A'D' kesmaga tushirib 3' nuqta topiladi. A''B'' kesmada joylashgan 4'' nuqtani A'B' kesmaga tushirib 4' nuqtani hosil qilamiz. S' nuqtadan h' chiziqqa perpendikulyar chiziq o‘tkazamiz. Shu perpendikulyar chiziq bilan 3'4' nuqtalar tutashishidan hosil bo‘lgan kesmalar kesishib

K' nuqtani hosil qiladi. 3'4' kesmada joylashgan K' nuqtani 3"4" kesmaga chiqarib K" nuqtani hosil qiladi. SK kesma S nuqtadan ΔABD gacha bo'lgan qisqa masofaning proyeksiyasi bo'ladi (SK kesmaning haqiqiy kattaligi to'g'ri burchakli uchburchak usuli bilan aniqlanadi).



23-chizma

$S_0K''=S_0K'''$ o‘zaro teng kesmalar S nuqtadan ΔABD uchburchak tekisligigacha bo‘lgan qisqa masofa bo‘ladi.

Ish so‘nggida ΔABD ($\Delta A'B'D'$, $\Delta A''B''D''$) tekislik ko‘k rangga, SK ($S'K'$, $S''K''$) kesma yashil rangga va S_0K (S_0K'' , S_0K''') esa qizil rangga bo‘yaymiz va haqiqiy kattalik belgisi qo‘yiladi.

Masalaning so‘nggida chizma taxt qilinadi (23-chizma).

2.2 masalani bajarish uchun varyantlar 17-jadvaldan olinadi.

17-jadval

Birinchi darajali murakkablik

Variant	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z			x	y	z
1	A	80	30	20	2	A	30	60	20
	B	30	60	10		B	60	10	30
	D	50	10	50		D	80	30	10
	S	70	60	70		S	90	60	60

17-jadval davomi

Variant	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z			x	y	z
3	A	30	50	10	4	A	20	30	10
	B	50	10	60		B	60	50	10
	D	80	20	20		D	80	10	50
	S	70	50	70		S	30	70	70
5	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z			x	y	z
	A	20	60	10		A	10	80	20
	B	70	30	30		B	80	40	20
7	D	50	10	70		D	30	30	70
	S	60	70	70		S	60	80	70
	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z			x	y	z
	A	10	10	70		A	20	20	50
	B	50	50	10		B	70	10	60
	D	80	20	30		D	50	40	20
	S	80	80	60		S	30	50	20

17-jadval davomi

Variant	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z			x	y	z
9	A	20	60	20	10	A	80	10	20
	B	40	30	60		B	30	20	50
	D	80	20	10		D	60	30	10
	S	50	60	70		S	70	60	50
11	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
	Variant	x	y	z		Variant	x	y	z
	A	60	30	20		A	60	20	10
	B	10	10	30		B	20	60	10
13	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
	Variant	x	y	z		Variant	x	y	z
	A	80	60	10		A	80	10	20
	B	40	40	80		B	40	10	50
15	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
	Variant	x	y	z		Variant	x	y	z
	A	70	40	10		A	80	20	20
	B	40	10	10		B	20	10	50
17	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar		
	Variant	x	y	z		Variant	x	y	z
	A	80	30	20		A	80	40	20
	B	50	10	60		B	50	10	60

17-jadval davomi

Variant	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar			
		x	y	z			x	y	z	
15	A	70	40	10	16	A	80	20	20	
	B	40	10	10		B	20	10	50	
	D	20	70	70		D	50	40	10	
	S	60	00	50		S	60	00	60	
17	Nuqta	Koordinatalar			Variant	Nuqta	Koordinatalar			
	Variant	x	y	z		Variant	x	y	z	
	A	80	30	20		A	80	40	20	
	B	50	10	60		B	50	10	60	
18	D	20	80	10	18	D	20	50	10	
	S	70	80	80		S	60	80	70	
	Nuqta	Koordinatalar				Nuqta	Koordinatalar			
	Variant	x	y	z		Variant	x	y	z	

19	A	70	70	40
	B	40	10	60
	D	20	80	10
	S	80	10	00

20	A	70	10	30
	B	10	20	50
	D	50	50	10
	S	40	60	60

17-jadval davomi

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
21	A	30	80	10
	B	20	30	80
	D	70	10	30
	S	60	80	70

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
22	A	40	70	10
	B	80	20	10
	D	20	20	70
	S	70	60	50

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
23	A	10	40	10
	B	50	10	70
	D	70	70	30
	S	20	60	70

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
24	A	20	50	10
	B	80	30	10
	D	60	10	60
	S	30	00	80

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
25	A	30	20	10
	B	80	40	20
	D	50	60	60
	S	70	80	70

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
26	A	20	20	50
	B	70	10	60
	D	50	40	10
	S	30	00	00

17-jadval davomi

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
27	A	80	20	50
	B	30	60	10
	D	50	10	80
	S	10	10	10

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z
28	A	20	50	30
	B	80	80	10
	D	50	20	60
	S	60	90	80

Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z


Variant	Nuqta	Koordinatalar		
		x	y	z

29	A	80	20	60	
	B	10	80	20	
	D	30	10	10	
	S	20	20	70	


30	A	70	60	10	
	B	10	40	50	
	D	50	10	60	
	S	20	10	10	

S nuqtadan berilgan tekislikkacha bo'lgan eng qisqa masofani topish.


1




2




3




4



5



6



Nazorat savollari

1. Tekislik chizmada qanday berilishi mumkin?
2. Tekislikning izi deb nimaga aytildi?
3. Qanday tekisliklar proyeksiyalovchi deyiladi?
4. Gorizontal va gorizontal proyeksiyalovchi hamda frontal va frontal proyeksiyalovchi tekisliklarning farqi nimada?

5. Nazorat uchun test

1. Koordinatalari berilgan A nuqta ($A_x=10$, $A_y=40$, $A_z=30$) qaysi proyeksiya tekisliklariga eng uzoq joylashgan ?

- A) Profil (W).
- B) Frontal (V).
- D) Gorizontal (H).
- C) Aksonometriya.

2. Chizma geometriyada tekisliklar nechi xil usulda berilishi mumkin?

- A) 5.
- B) 3.
- D) 4.
- C) 6.

3. Koordinatalari berilgan N nuqta qaysi biri bissektor tekisligida joylashgan?

- A) N (30, 30, 10).
- B) N (100, 30, 30).
- D) N (10, -10, 30).
- C) N (00, 00, 00).

4. Nuqta qachon [ox] o‘qida yotishi mumkin?

- A) N ($\infty>01$, 00, 00).
- B) N (20, 10, 10).
- D) N (00, 00, 00).
- C) N (-10, 10, 10).

5. Nuqta qachon [oz] o‘qida yotishi mumkin?

- A) N ($\infty>00$, 00, 00).
- B) N ($\infty>00$, $\infty>00$, $\infty>00$).
- D) N (-10, 10, 10).
- C) N (00, 00, $\infty>01$).

6. Agar tekislik proyeksiyalar tekisliklarining birortasiga parallel yoki perpendikulyar bo'lmasa u qanday tekislik deyiladi?

- A) Aralsh tekislik.
- B) Parallel tekislik.
- D) Umumiy vaziyatdagi tekislik.
- C) Perpendikular tekisliki.

7. Agar tekislik proyeksiyalar tekisligining biriga perpendikulyar yoki parallel bo'lsa u qanday tekislik deyiladi?

- A) Xususiy vaziyatdagi tekislik.
- B) Parallel tekislik.
- D) Umumiy vaziyatdagi tekislik.
- C) Proyeksiyalovchi tekisliklar.

8. Proyeksiyalar tekisligiga perpendikulyar bo'lgan tekisliklar u qanday tekislik deyiladi?

- A) Xususiy vaziyatdagi tekislik.
- B) Parallel tekislik.
- D) Umumiy vaziyatdagi tekislik.
- C) Proyeksiyalovchi tekisliklar.

9. Frontal proyeksiyalar tekisligiga perpendikulyar bo'lgan tekislik qanday tekislik deyiladi?

- A) Xususiy vaziyatdagi tekislik.
- B) Parallel tekislik.
- D) Umumiy vaziyatdagi tekislik.
- C) Frontal proyeksiyalovchi tekislik.

10. Oktantlar hosil bo'lishi uchun nechta perpendikulyar tekisliliklar o'zaro kesishishi kerak?

- A) 1
- B) 4
- D) 8
- C) 3


Berilgan tekislikka parallal tekislik o‘tkazish

2.3 masala. *ABD uchburchak tekisligidan 40 mm uzoqlikda unga parallel tekislik o‘tkazilsin (24-chizma).*

Masalani yechimi; ABD uchburchak tekisligi uchlarining berilgan A (90, 10, 10), B (60, 60, 80), D (20, 30, 60) koordinatalari bo‘yicha uning $\Delta A'B'D'$ gorizontal va $\Delta A''B''D''$ frontal proyeksiyalari chizib olinadi. Berilgan ΔABD tekislikning $h(h',h'')$ va $f(f',f'')$ bosh chiziqlari o‘tkaziladi. ΔABD uchburchak tekisligining biror nuqtasidan, masalan $D(D',D'')$ uchidan unga perpendikulyar $t(t',t'')$ to‘g‘ri chiziq chiqariladi, ya’ni $t \perp h(t' \perp h')$ va $(t'' \perp f'').t(t',t'')$ to‘g‘ri chiziqning istalgan joyidan $N(N',N'')$ nuqta belgilaniladi va $AN(A'N',A''N'')$ kesma hosil qilinadi. So‘ngra $AN(A'N',A''N'')$ kesmaning haqiqiy uzunligi $A''N_0$ to‘g‘ri burchakli uchburchak usulida aniqlanadi (*AB kesmani haqiqiy kattaligni topish usuli 5-chizmada ko‘rsatilgan*).

ΔABD tekislikning $D(D'')$ uchidan $A''N_0$ kesmaga 40 mm masofa o‘lchab qo‘yiladi va unda K_0 nuqta aniqlanadi. Aniqlangan K_0 nuqtadan $N''N_0$ katetga parallel chiziq o‘tkazib, $t''(N''A'')$ da K'' nuqta belgilanadi. K nuqtadan gorizontal proyeksiyalovchi K' bog‘lovchi chiziq orqali $t(N'A')$ da aniqlanadi. Demak, ΔABD tekislikdan 40 mm uzoqlikda joylashgan $K(K',K'')$ nuqtaning proyeksiyalariga ega bo‘linadi.

Endi $K(K',K'')$ nuqtadan $ABD(A'B'D',A''B''D'')$ uchburchak tekisligiga parallel tekislik o‘tkaziladi. Buning uchun K' nuqtadan $\Delta A'B'D'$ ning $A'B'$ va $A'D'$ tomonlariga n' va m' , xuddi shuningdek, K'' dan esa $\Delta A''B''D''$ ning $A''B''$ va $A''D''$ tomonlariga mos ravishda parallel qilib n'' va m'' to‘g‘ri chiziqlar o‘tkaziladi. O‘zaro $K(K',K'')$ nuqtadan kesishuvchi $n(n',n'')$ va $m(m',m'')$ to‘g‘ri chiziqlar $Q(Q',Q'')$ tekislikni hosil qiladi va bu tekislik $\Delta ABD(\Delta A'B'D',\Delta A''B''D'')$ tekisligiga parallel bo‘ladi ($QII\Delta ABD$)



$N^{\#}$	x	y	z
A	90	10	10
B	60	60	80
D	20	30	60

24-chizma

Chiziq turlariga rioya qilgan holda chizma taxt qilinadi. (24-chizma).

2.3 masalani bajarish uchun variantlar 17-jadvaldan olinadi.

Nazorat savollari

1. Qanday chiziqlar tekislikning bosh chiziqlari deyiladi?
2. Tekislikning eng katta og'ma chiziqlari yordamida qanday bur-chaklarni aniqlanish mumkin?
3. Ikki tekislikning o'zaro kesishish chizig'ini yasashning umumiy algoritmi qanday?

6. Nazorat uchun test

1. Profil proyeksiyalar tekisligiga perpendikulyar tekislik qanday tekislik deyiladi ?

- A) Xususiy vaziyatdagi tekislik.
- B) Parallel tekislik.
- D) Umumiyl vaziyatdagi tekislik.
- C) Prifil proyeksiyalovchi tekislik.

2. Agar fazodagi m to'g'ri chiziq P tekislikka tegishli biror n to'g'ri chiziqqa parallel bo'lsa, u holda bu to'g'ri chiziq tekislikka qanday vaziyatda joylashgan?

- A) Kesishuvchi
- B) Parallel
- D) Umumiyl vaziyatdaga
- C) Perpendikulyar

3. Agar ikki tekislik umumiyl to'g'ri chiziqqa ega bo'lsa, bu tekisliklar qanday vaziyatda joylashgan ?

- A) Xususiy vaziyatdagi tekislik
- B) O'zaro kesishuvchi tekisliklar
- D) Umumiyl vaziyatdagi tekislik
- C) Frontal proyeksiyalovchi tekislik

4. Tekislikka perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziqdan o'tuvchi barcha tekisliklar berilgan tekislikka qanday vaziyatda joylashgan bo'lad ?

- A) Xususiy vaziyatdagi tekislik
- B) Perpendikulyar tekisliklar
- D) Umumiyl vaziyatdagi tekislik
- C) Frontal proyeksiyalovchi tekislik

5. A nuqtadan tekislikkacha qisqa masofani nima aniqlaydi?

- A) To‘g‘ri chiziq
- B) Tekislikka perpendikulyar to‘g‘ri chiziq
- D) Umumiy vaziyatdagi tekislik
- C) Frontal proyeksiyalovchi tekislik

6. Nuqtaning parallel proyeksiyasi nima bo‘ladi ?

- A) Aylana
- B) To‘g‘ri chiziq
- D) Nuqta
- C) Frontal proyeksiyalovchi tekislik

7. H ga perpendikulyar AB kesmaning V dagi proyeksiyasi

Ox oqqa nisbatan qanday ko‘rinishda bo‘ladi ?

- A) Perpendikulyar
- B) Ayqash
- D) Umumiy vaziyatdagi tekislik
- C) 45°

8. Parallel proyeksiyalashda proyeksiyalovchi nur proyeksiya tekisligiga perpendikulyar bo‘lsa, qanday proyeksiyalash hosil bo‘ladi ?

- A) To‘g‘ri burchakli
- B) Markaziy
- D) Qiyshiq burchakli aksonometrik proyeksiya
- C) Qiyshiq burchakli parallel proyeksiyalash

9. OX o‘qining nomi nima?

- A) Absissa.
- B) Ordinata.
- D) Aplikata.
- C) Koordinata boshi.

10. OY o‘qining nomi nima?

- A) Absissa.
- B) Ordinata.
- D) Aplikata.
- C) Koordinata boshi.

Berilgan tekislika perpendikular tekislik o‘tkazish

2.4 masala. ABD uchburchak tekisligining bir uchi orqali unga qarshi yotgan tomoniga perpendikulyar qilib tekislik o‘tkazilsin, ularning kesishuv chizig‘i yasalsin va ko‘rinar-ko‘rinmas qismlari aniqlansin. (25-chizma)


Masalaning yechimi. Dastlab ABD uchburchak tekisligining berilgan A (90, 10, 10), B(60, 60, 80), D (20, 30, 60) koordinatalari bo‘yicha $\Delta A'B'D'$ gorizontal va $\Delta A''B''D''$ frontal proyeksiyalari chizib olinadi.

ABD uchburchak tekisligining B uchidan AD tomoniga perpendikulyar qilib tekislik o‘tkazishimiz kerak. Qulay bo‘lishi uchun tekislik bosh chiziqlari orqali o‘tkaziladi. Buning uchun B' dan A'D' ga perpendikulyar qilib o‘tkazmoqchi bo‘lgan tekisligimizning h' gorizontal chizig‘i o‘tkaziladi va u ihtiyyoriy F' nuqtada chegaralanadi. Tekislik gorizontalining frontal h" proyeksiyasi B" dan [ox] o‘qiga parallel qilib h" chiziq topiladi. Gorizontaldagi F' nuqtani [ox] o‘qiga perpendikulyar chiziq o‘tkazib h" da F" nuqtani belgilaymiz.

B" dan A"D" ga perpendikulyar qilib tekislik frontalining f" frontal proyeksiyasi o‘tkaziladi va unda ixtiyoriy E" nuqta belgilanadi. B' dan [ox] ga parallel chizib f aniqlanadi va unga E nuqtanining gorizontal proyeksiyasi E' bog‘lovchi chiziq orqali olib tushiriladi. E (E', E") va F (F', F") nuqtalarni tutashtirib, ΔBEF ($\Delta B'E'F'$, $\Delta B''E''F''$) tekisligi hosil qilinadi.

ΔABD va ΔEBF tekisliklarning o‘zaro BK ($B'K'$, $B''K''$) kesishish chizig‘ini yasash uchun EF ($E'F'$, $E''F''$) chiziqnini ABD uchburchak tekisligi bilan kesishgan K (K', K'') nuqtani aniqlanadi. Buning uchun EF to‘g‘ri chiziq orqali frontal proyeksiyalovchi T (T_v , T_h) tekislik o‘tkaziladi. T tekislik ΔABD tekislik bilan kesishib BD tomonida 1 nuqtani hosil qiladi, AD tomonida 2 nuqtani hosil qiladi, ya’ni $B''D''$ da 1'', $A''B''$ da 2'' hosil bo‘ladi va 1' o‘z navbatida $B'D'$ da, 2' nuqta A'D' da aniqlanadi. Bu topilgan 1'2' chiziq E'F' kesmani kesib K' nuqtani beradi va [ox] o‘qiga perpendikulyar chiqarib frontaldagi 1"2" chiziqda K" ni topamiz. B (B', B'') va K (K', K'') nuqtalarni tutashtruvchi BK ($B'K'$, $B''K''$) kesma (qizil rangda) ΔABD va ΔBEF tekisliklarning kesishgan chizig‘i hisoblanadi.

$\begin{matrix} 3 & \in & AD \\ 4 & \in & FK \end{matrix}$



Nº	x	y	z
A	90	10	10
B	60	60	80
D	20	30	60

ABD üçburchak teksisligi		EBC üçburchak teksisligi		FCD üçburchak teksisligi		Massa		Ko'ntroll
E	F	I	J	K	L	M	N	O
G	H	P	Q	R	S	T	U	V
Z	Y	X	W	V	U	T	S	R
Z'	Y'	X'	W'	V'	U'	T'	S'	R'
Z''	Y''	X''	W''	V''	U''	T''	S''	R''

25-chizma

So'nggi jarayon ΔABD va ΔBEF tekisliklarning proyeksiyalari-dagi ko'rinar-ko'rinasmas qismlarini aniqlashdan iborat. Dastlab, ikki

uchburchak tekisliklarining gorizontal proyeksiyalarda ko‘rinar-ko‘rinmas qismlarini aniqlab ko‘raylik. Masalan, AD (A', D') va FK (F', K') kesmalarga tegishli bo‘lgan 3 (3 € AD) va 4 (4 € FK) raqobatlashuvchi nuqtalar belgilanadi. Ushbu nuqtalarning frontal proyeksiyalari (3" va 4") aniqlanadi. Yuqorida qaraganda 4" nuqta (3")ga nisbatan kuzatuvchiga yaqin turganligi ma’lum bo‘ladi yoki frontalda [ox] o‘qiga eng uzoq nuqta (4") bo‘ladi. Demak, 4 (4', 4") nuqta FK (F'K', F"K") kesmaga tegishli bo‘lganligi sababli uning gorizontal F'K' proyeksiyasi A'D' dan yuqorida joylashadi va B'F'K' uchburchak ko‘rinarli bo‘ladi. A'B' ning bir qismi esa ko‘rinmas bo‘lib qoladi. Bu amalni boshqa chiziqlarda ham qo’llaymiz. (25-chizma)

Chiziq turlariga rioya qilgan holda chizma taxt qilinadi (Δ ABD ni ko‘k, Δ BEF ni esa yashil rangda chizish tavsiya etiladi).

2.4 masalani bajarish uchun variantlar 17-jadvaldan olinadi.

Nazorat savollari

1. Proyeksiyalarni qayta qurishning qanday usullari mavjud?
2. Tekis-parallel harakatlantirish usulining ma’nosini nimadan iborat?
3. Aylantirish usulining ma’nosini nimadan iborat?
4. Gorizontal (yoki frontal) proyeksiyalovchi o‘q atrofida aylanayotgan nuqtaning proyeksiyalari qanday harakatlanadi?
5. Nuqtaning aylanish radiusi, markazi va aylanish harakat tekisliklari deganda nimalar tushuniladi?
6. Kesmaning haqiqiy uzunligini yasash uchun uni qanday vaziyatga kelguncha aylantirish kerak.?
7. Uchburchakni gorizontal (yoki frontal) proyeksiyalovchi holga keltirish uchun uni qaysi o‘q atrofida aylantirish kerak?
8. Izlari bilan berilgan tekislikni aylantirib frontal proyeksiyalovchi holga keltirish uchun nima qilish kerak?
9. Tekislikni izlari atrofida aylantirishdan ko‘zlangan maqsad nima?
10. Proyeksiyalar tekisliklarni almashtirish usulining mohiyati nimadan iborat?
11. Umumiy vaziyatdagi uchburchakning haqiqiy kattaligini yasash uchun proyeksiyalar tekisliklari ketma-ket qanday vaziyatlarda almashtiriladi.

7. Nazorat uchun test

1. To‘g‘ri chiziq kesmasi H tekisligiga og‘ma vaziyatda bo‘lsa, ortogonal proeksiyalashda, u shu tekislikka qanday proeksiyalanadi?

- A) Haqiqiy uzunligida.
- B) Qisqarib.
- C) Nuqta kO‘rinishida.
- D) Kattalashib.

2. ABC uchburchak tekisligi barcha proeksiyalar tekisliklariga nisbatan og‘ma vaziyatda bo‘lsa, u qanday tekislik deyiladi?

- A) Gorizontal.
- B) Proeksiyalovchi.
- C) Umumiy vaziyatdagi.
- D) Profil.

3. Tekislikning frontal chizig‘i uning qaysi iziga parallel bo‘ladi?

- A) Gorizontal iziga.
- B) Frontal iziga.
- C) Profil iziga.
- D) Eng katta og‘ma chizig‘iga.

4. Proeksiyalar tekisliklari (H,V,W lar) o‘zaro qanday vaziyatda bo‘ladi?

- A) Og‘ma.
- B) Parallel.
- C) Perpendikulyar.
- D) 45° qiyalikda.

5. Ikki kesishuvchi to‘g‘ri chiziq orasidagi burchakni aniqlashga oid masala qanday masala deb nomlanadi?

- A) Metrik masala.
- B) Pozitsion masala.
- C) Konstruktiv masala.
- D) Teskari pozitsion masala.

6. Parabola egri chizig‘i nechinchi tartibli egri chiziq hisoblanadi?

- A) To‘rtinchi tartibli.

- B) Uchinchi tartibli.
- D) Ikkinci tartibli.
- C) Beshinci tartibli.

7. Chizma geometriya bo'yicha o'zbek tilida birinchi o'quv adabiyoti kim tomonidan yozilgan?

- A) Yu.Qirg'izboev.
- B) Sh.K.Murodov.
- D) R.Xorunov.
- C) P.Adilov.

8. Lekalo egri chiziqlari safiga kirmaydigan chiziq ?

- A) Parabola.
- B) Oval.
- D) Ellips.
- C) Giperbola.

9. To'g'ri chiziqning V bilan kesishgan nuqtasi nima deyiladi?

- A) Ixtiyopriy.
- B) Profil izi.
- D) Gorizontal izi.
- C) Frontal izi.

10. To'g'ri chiziqning H bilan kesishgan nuqtasi nima deyiladi?

- A) Ixtiyopriy.
- B) Profil izi.
- D) Gorizontal izi.
- C) Frontal izi.

1. Nazorat uchun testlarning javob kalitlari

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javob	B	D	A	C	D	A	A	A	B	D

2. Nazorat uchun testlarning javob kalitlari

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javob	A	A	D	C	A	B	D	A	B	A

3. Nazorat uchun testlarning javob kalitlari

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javob	C	B	C	C	C	C	A	A	B	A

4. Nazorat uchun testlarning javob kalitlari

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javob	C	B	C	C	A	C	C	A	D	A

5. Nazorat uchun testlarning javob kalitlari

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javob	B	A	B	A	C	D	A	C	C	C

6. Nazorat uchun testlarning javob kalitlari

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javob	C	B	B	B	B	D	A	A	A	B


7. Nazorat uchun testlarning javob kalitlari

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Javob	B	D	B	D	A	D	A	B	C	D	A	B

Chizma geometriya fani bo'yicha test savollari to'plami

Fan bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarini tinglash, o'quv adabiyotlarini mutoala qilish, berilgan savollarga yozma rovishda javoblar yozish orqali nazariy bilimga, amaliy mashg'ulotlarda faol qatnashish, grafik vazifalarni va turli masalalarni mustaqil ravishda bajarish orqali esa talabalar bilim, amalaiy ko'nikma va grafik savodxonlikka ega bo'ladi. Talabaning nazariy va amaliy bilim, ko'nikmalarni egallanganlik darajasini aniqlash uchun test savollaridan foydalanish tekshirishning bir usuli hisoblanadi. Quyida shunday test savollari keltilgan.

- 1 *Parallel proyeksiyalashning qanday turlari mavjud ?*
A To'g'ri burchakli va qiyshiq burchakli parallel proyeksiyalashlar.
B Vektorli proyeksiyalash.
D Markaziy proyeksiyalash.
C To'g'ri javob yo'q.
- 2 *Nuqtaning qanday proyeksiyasi berilgan ?*
A Vektorli proyeksiyasi.
B Markaziy proyeksiyasi.
D Aksonometrik proyeksiyasi.
C Son belgili proyeksiyasi.
- 3 *Qaysi proyeksiyalash usuli kO'rsatilgan ?*
A Markaziy proyeksiyalash.
B Paralel proyeksiyalash.
D Vektorli proyeksiyalash.
C Qiyshiq burchakli parallel proyeksiyalash.
- 4 *Koordinatalari $A_x = 10$, $A_y = 40$, $A_z = 30$ bo'lgan A nuqta fazoning qaysi qismida joylashgan bo'ladi ?*
A I-oktantda.
B II-oktantda.
D II-oktantda.
C II-oktantda.




- 5 *Koordinatalari berilgan A nuqta ($A_x=10$, $A_y=40$, $A_z=30$) qaysi proyeksiya tekisliklariga yaqin joylashgan ?*
- A Profi (W).
 - B Frontal (V).
 - D Gorizontal (H).
 - C Aksonometriya.
- 6 *Nuqta qachon [oy] o 'qida yotishi mumkin?*
- A N ($\infty>00, 00, 00$).
 - B N ($\infty>00, \infty>00, \infty>00$).
 - D N ($00, 00, \infty>00$).
 - C N ($00, \infty>00, 00$).
- 7 *Nuqta qachon fazoda cheksizlikka ega bo 'ladi?*
- A N ($\infty>00, 00, 00$).
 - B N ($\infty>00, \infty>00, \infty>00$).
 - D N ($00, 00, \infty>00$).
 - C N ($00, \infty>00, 00$).
- 8 *Qachon N nuqta koordinata boshida bo 'ladi ?*
- A N (30, 30, 10).
 - B N (00, 30, 30).
 - D N (10, -10 30).
 - C N (00, 00, 00).
- 9 *VI-oktantdagi ishoralarini ko 'rsating?*
- A -x, -y, z.
 - B -x, y, z.
 - D x, y, -z.
 - C -x, -y, -z.
- 10 *V-oktantning ishoralarini ko 'rsating?*
- A -x, y, z.
 - B -x, -y, -z.
 - D x, y, -z.
 - C -x, y, -z.


- 11 *IV-oktantning ishoralarini ko 'rsating?*
A -x, -y, z.
B -x, y, z.
D x, y, -z.
C -x, -y, -z.
- 12 *III-oktantning ishoralarini ko 'rsating?*
A -x, -y, z.
B -x, y, z.
D x, -y, -z.
C -x, -y, -z.
- 13 *Tekis to 'g'ri chiziq nimalardan tashkil topgan?*
A Nuqtalardan.
B Tekisliklardan.
D Xosmas chiziqlardan.
C To‘g‘ri javob yo‘q.
- 14 *Ikki to 'g'ri chiziq kesishganda nima hosil bo 'ladi?*
A Ikkita nuqta.
B Bitta nuqta.
D Kvadrat.
C Uchburchak.
- 15 *Ikki tekislik kesishganda nima hosil bo 'ladi?*
A Uchunchi tekislik.
B To‘g‘ri chiziq.
D Aylana.
C Shar.
- 16 *Parallel to 'g'ri chiziq deganda nimani tushunasiz?*
A Bir tekislikda yotgan va qarama qarshi nuqtalari orasidagi masofalar teng bo‘lsa.
B Bir nuqtada kesishsa.
D Ayqash bo‘lsa.
C To‘g‘ri javob yo‘q.

- 17 *Ayqash chiziq nima?*
- A Fazoda ikki to‘g‘ri chiziq kesishmasa ham parallel bo‘lмаган to‘g‘ri chiziqlar.
 - B Tekislikda ikki to‘g‘ri chiziq kesishmasa ham parallel bo‘lмаган to‘g‘ri chiziqlar.
 - C Uchta chiziq kesishsa.
 - D To‘g‘ri javob yo‘q.
- 18 *Oktantda bitta to‘g‘ri chiziqning nechtagacha izi bor ?*
- A 5.
 - B 3.
 - C 8.
 - D 16.
- 19 *Chorakda bitta to‘g‘ri chiziqning nechtagacha izi bor?*
- A 2.
 - B 3.
 - C 4.
 - D 5.
- 20 *Tekislikning P_H va P_V izlari [ox] ga parallel bo‘lsa qaysi tekislikka proyeksiyalovchi bo‘ladi?*
- A Profilga.
 - B Gorizontalga.
 - C Frontalga.
 - C Aksonometriyaga.
- 21 *Ikkita parallel chiziqlar kesishadimi?*
- A Yo‘q.
 - B Kesishadi xosmas nuqtada.
 - D Faqat tekislikda.
 - C To‘g‘ri javob yo‘q.
- 22 *Ikkita tekislik kesishganda nima hosil bo‘ladi?*
- A Aylana.
 - B Shar.
 - D To‘g‘ri chiziq.
 - C Nuqta.

- 23 *Ikkita parallel chiziqlar orqali tekislik o'tkazsa bo'ladimi?*
- A O'tkazsa bo'ladi.
 - B O'tkazib bo'maydi.
 - D Shar hosil bo'ladi.
 - C To'g'ri javob yo'q.
- 24 *Nuqtaning gorizontal proyeksiyalar tekisligidan uzoqligini qaysi o'q belgilaydi?*
- A [ox].
 - B [oz].
 - D [oy].
 - C [ov].
- 25 *Nuqtaning profil proyeksiyalar tekisligidan uzoqligini qaysi o'q belgilaydi?*
- A [ox].
 - B [oz].
 - D [oy].
 - C [ov].
- 26 *Berilgan to'g'ri chiziqning nomini ayting.*
- A Frontal chiziq.
 - B Gorizontal chiziq.
